

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**“O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING  
YANGILANISH TAMOYILLARI”**

**moduli bo‘yicha**

**O‘QUV – U SLUBIY MAJMU A**

**Toshkent - 2016**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining  
2016-yil 25-avgustdagi 355-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida  
tayyorlandi**

**Tuzuvchi:**

**Turdimov Sh.G.,**

ToshDO‘TAU “Folklorshunoslik va  
dialektologiya” kafedrası mudiri,  
filol.f.d.

**Taqrizchi:**

**Karimov B.**

ToshDO‘TAU, “Adabiyotshunoslik  
nazariyasi va zamonaviy adabiy  
jarayon” kafedrası mudiri, professor,  
filol.f.d.

*O‘quv -uslubiy majmua ToshDO‘TAU Kengashining 2016 -yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli  
qarori bilan nashrga tavsiya qilingan*

## MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	11
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	16
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI.....	66
V.	KEYSLAR BANKI.....	68
VI.	MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....	69
VII.	GLOSSARIY.....	70
VIII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	79

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi” farmonida Universitetning asosiy vazifalari qatorida: “o‘zbek tili va adabiyoti, folklorining tarixan shakllangan adabiy, lingvistik maktablari va ta’limotlarini, mumtoz va zamonaviy metodlarini, buyuk ajdodlarimizning o‘zbek va jahon tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi, ularning ilmiy merosi, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari, o‘zbek tili va adabiyotining rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy muammolarni tadqiq etish” masalalariga ham alohida diqqat qaratilgan. O‘zbek folklorshunosligi tarixida mustaqillik yillari davri alohida ajralib ko‘rinadi. Ilmiy va ommaviy nashrlarning soni ortdi. Folklorning barcha janrlari yuzasidan tadqiqotlar ko‘lami kengaydi. O‘zbek folklorshunosligi zamonning ilg‘or ilmiy maktablari bilan teng darajada ilmiy tadqiqotlar olib borish darajasida o‘z mavqeyiga ega bo‘ldi. Mazkur «Fan» o‘zbek folklorshunosligining barcha sohalaridagi yutuqlari, taraqqiyot tamoyillarini tinlovchilarga yetkazib berishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib oladi.

#### **Modulning maqsadi va vazifalari:**

O‘zbek folklorshunosligi qariyb yuz yillik tarixda o‘zbek folklori namunalarini yig‘ish, arxivlashtirish, ommaviy va ilmiy nashrlarni amalga oshirish, ilmiy tadqiqotlar yaratish kabi keng ko‘lamli ishlarni olib bormoqda. Bu davr mobaynida to‘rtinchi avlod folklorshunoslari yetishib chiqmoqda. O‘zbek folklorshunosligi «Fan» sifatida erishgan natijalarini davrlararo o‘rganish bu «Fan»ning taraqqiyot tamoyillarini aniqlash, tegishli xulosalarga kelish imkonini yaratadi.

#### **Modulning vazifalari:**

- o‘zbek folklorshunosligining taraqqiyot bosqichlarini aniqlash;
- folklor asarlarini yozib olish, saqlash, nashr etish tajribalarini ilmiy baholash;
- epik meros namunalari tadqiq etilgan ishlardagi nazariy qarashlar tadrijini o‘rganish;
- marosim folklori namunalariga e’tibor va ilmiy yondoshuvning shakllanishi, yutuqlarini baholash;
- xalq lirikasida matn semantikasi tahlili, yangi qarashlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi masalalari tahlili;
- o‘zbek mifologiyasi va mifologik obrazlar tadqiqi, zamonaviy metod va metodologiyalarning kirib kelishi;
- o‘rganib chiqilgan sohalar asosida o‘zbek folklorining taraqqiyot tamoyillarini belgilash, ular asosida ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish.

## **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va layoqatlariga qo'yiladigan talablar**

“O‘zbek folklorshunosligining taraqqiyot tamoyillari” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida

### **Tinglovchi:**

- o‘zbek folklorshunosligining taraqqiyot bosqichlari;
- folklor asarlarining yozib olinishi, arxiv, ilmiy va ommaviy nashr tajribalarini;
- epik meros, marosim folklori, xalq lirikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning ilmiy yangiligini;
- o‘zbek mifologiyasi va mifologik obrazlar tizimini;
- o‘zbek folklorshunosligida qo‘llanilayotgan zamonaviy metod va metodologiyalarni *bilishi kerak*.

### **Tinglovchi:**

- folklor matnlari nashrida originalga sodiq qolish;
- chop etilayotgan matnning ilmiy izohlar bilan ta'minlangan bo‘lishiga diqqat qaratish;
- shevaga xos so‘zlarni adabiy tilda muqobil izohlash;
- etnofolkloristika, etnoarxeologiya va folklor asarlari tahlilidan adabiy-nazariy xulosalar chiqarish;
- ilmiy fikrlarni muayyan tizim asosida ifodalash;
- ilmiy tahlil va talqinda zamonaviy metodologiyani qo‘llay bilish *ko‘nikmalariga* ega bo‘lishi kerak.

### **Tinglovchi:**

- qahramonlik, romanik, kitobiy dostonlar tahlilida asar badiiyatini asos sifatida olish;
- Folklor asarlari tili – ramz va timsollar ma'nosi, shu asosda kelib chiquvchi semantik sathni ochish;
- mifologik obrazlarning folklor asarlari takibidagi badiiy vazifasini aniqlay bilish *malakalarini* egallashi zarur.

### **Tinglovchi:**

- folklor tarixi va nazariyasi yuzasidan egallagan bilimlar asosida folklorshunoslikning rivojlanish bosqichlari, taraqqiyot tamoyillarini tushuntira olish;
- epos, lirik qo‘shiqlar, marosim folklori va folklorning boshqa janrlari tadqiqi yuzasidan amalga oshgan yangi tadqiqotlarni baholay bilish;
- folklorshunoslik «Fan»i yutuqlari, nazariy umumlashmalari asosida zamon talablariga uyg‘un dolzarb muammolarini kun tartibiga qo‘yish va uni yechish malakasiga *ega bo‘lishi lozim*.

## **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“O‘zbek folklorshunosligining taraqqiyot tamoyillari” kursi ma’ruza, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlar hamda mustaqil ta’lim shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy uslublari, axborot-muloqot texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## **Modulning o‘quv rejadagi boshqa «Fan»lar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“O‘zbek folklorshunosligining taraqqiyot tamoyillari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi birinchi blok va mutaxassislik «Fan»larining barcha sohalari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning umumiy va maxsus «Fan»lar bo‘yicha tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

## **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonini tashkil etishda texnologik yondashuv asoslarini va bu boradagi ilg‘or tajribani o‘rganadilar, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy layoqatga ega bo‘ladilar.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul soatlari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil ta'lim
			Jami	jumladan			
				Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot	
1	Folklor ma'naviyat negizi. Mustaqillik davri folklorshunosligi	4	4	2	2		
2	Folklor asarlari nashri: ommaviy va ilmiy nashrlar	6	4	2	2		
3	Xalq dostonlari va ertaklari tadqiqining yangi tamoyillari	4	4	2	2		
4	Marosim folklori va xalq lirikasi semantikasi tadqiqi	6	6	2	4		
5	O'zbek mifologiyasi manbalari va talqinlari	6	4	2	2		
6	Folklor arxivida ko'chma mashg'ulot :folklor asarlarining saqlanish tartibi, arxiv yuritish, arxivlashtirishning ilmiy asoslari (Til va adabiyot institutining folklor bo'limidagi folklor arxivi bilan tanishish)	2				2	
<b>JAMI</b>		<b>28</b>	<b>24</b>	<b>10</b>	<b>12</b>	<b>2</b>	<b>4</b>

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **1-mavzu. Kirish. Folklor ma'naviyat negizi. Mustaqillik davri folklorshunosligi**

Folklorning xalq ma'naviy hayotidagi o‘rni. Mustaqillik davrida folkloriy merosga yangicha munosabatning shakllanganligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi” farmoni folklorshunoslik «Fan»i rivojidadagi o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Navro‘z bayrami va “Alpomish” dostoni haqidagi qarorlarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

### **2-mavzu. Folklor asarlari nashri: ommaviy va ilmiy nashrlar**

Ilk nashrlarning amaliy, ma'rifiy xizmati, ularning xalq ma'naviy hayotidagi o‘rni masalalari yoritiladi. Folklor asarlarini nashr etish mezonlari va uning amalga oshish jarayoni bilan bog‘liq muammolar, nazariy masalalar. “Xalq og‘zaki ijodi” nashri va uning ilmiy ahamiyati, nashr mezonlari, “O‘zbek xalq ijodi yodgoliklari” 100 jildligining ilmiy hayotdagi o‘rni, yangiligi, tajribalari.

### **3-mavzu. Xalq dostonlari va ertaklari tadqiqining yangi tamoyillari**

Xalq dostonlarida poetik ramz va timsollarning badiiy matn tarkibidagi o‘rni. Xalq dostonlari va ertaklarida yetakchi obrazlar, g‘oyaviy-badiiy talqinlarining yangi tipdagi baholari. Epos va ertaklarda syujet tiplari, yetakchi motivlarning o‘rganilishi. Baxshi, doston ijrosi, dostonchilik maktablari, ertakchi va ertakchilikka berilgan baholar.

### **4-mavzu. Marosim folklor va xalq lirikasi semantikasi tadqiqi**

Mavsumiy marosimlar janrlar tarkibi, poetikasining tadqiqi. Navro‘z bayrami genezisi, Navro‘z qo‘shiqlari, tadqiqi. Navro‘z bayramining yangilanish jarayonida qadimiy an'analarning saqlanishi. Oilaviy marosimlar folklorining yangi talqinlari. Xalq lirikasi obrazlar tizimi, talqinlari, Zamonaviy san'at turlari orasida ularning o‘rni, yangilanib borishi bilan bog‘liq muammolar.

### **5-mavzu. O‘zbek mifologiyasi manbalari va talqinlari**

Mifologik olam tadqiqi. O‘zbek mifologiyasining o‘rganilishi, manbalari, syujet tiplari. Olamning yaralishi, intihosi, osmon yoritqichlari, yerda ilk hayotning paydo bo‘lishi, Hayot daraxti va boshqa mifologik obrazlar tizimi, ularning folklor asarlari tarkibidagi o‘rni hamda tadriji. Mif va epos, mif va ertak, mif va xalq lirikasi. Mif va adabiyot, san'at masalalari keng yoritiladi.



## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy didaktik ta‘minot va laboratoriya jihozlariga ega bo‘lgan auditoriyalarda hamda Internet tarmog‘iga ulangan kompyuter sinflarida, tayanch oliy ta‘lim muassasalarining kafedralarida tashkil etiladi.

### **1-amaliy mashg‘ulot:**

#### **Folklor ma'naviyat negizi. Mustaqillik davri folklorshunosligi amaliy mashg‘uloti**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi” farmonining ahamiyati va folklorshunoslik rivojida tutgan o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida Navro‘z bayrami va “Alpomish” dostoni xususidagi fikrlarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mustaqillik davrida folklor asarlarning xalq ma'naviy hayotidagi o‘rni.

### **2-amaliy mashg‘ulot:**

#### **Folklor asarlari nashri: ommaviy va ilmiy nashrlari amaliy mashg‘uloti**

Folklor asarlarining yozib olinishining amaliy, ma'rifiy ahamiyati. Folklor asarlarini yig‘ish, tasniflash, nashr etishning o‘ziga xos prinsiplari. “O‘zbek xalq ijodi yodgoliklari” 100 jildligidan joy olgan “Alpomish” dostonining variantlari.

### **3-amaliy mashg‘ulot:**

#### **Xalq dostonlari va ertaklari yangi tadqiqi yuzasidan amaliy mashg‘ulot**

Xalq dostonlaridagi poetik ramz va timsollarni o‘rganish, xalq dostonlari va ertaklaridagi yetakchi obrazlarning g‘oyaviy-badiiy talqinlarini tadqiq etish, epos va ertaklarda an'anaviy syujet va motivlarni o‘rganish, dostonchilik maktablari, atoqli xalq baxshilari hayoti va ijodini tahlil etish.

### **4-amaliy mashg‘ulot:**

#### **Marosim folklori va xalq lirikasi semantikasi**

Mavsumiy marosim folklori va ularning tasnifi, badiiyati, Navro‘z qo‘shiqlari ijrosi va talqinlari, xalq lirikasida obrazlar tizimi, ularning an'anaviy ohang yo‘llari, qaytariqlar hamda xalq qo‘shiqlarining raqs san'ati bilan bog‘liqligi.

### **5-amaliy mashg‘ulot:**

#### **O‘zbek mifologiyasi manbalari va talqinlari**

O‘zbek xalqi mifologik tizimidagi yetakchi obrazlarning talqinlari, mif va epos, mif va ertak, mif va xalq lirikasi munosabati, mifning xalq marosimlari va folklor janrlari tarkibiga singishi hamda badiiy-estetik sathga o‘tishi masalalari. Mif va o‘zbek adabiyoti, mifologik dunyoqarashning adabiyotda o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘lishi.

## **6-amaliy mashg'ulot:** **Folklor arxivida ko'chma mashg'ulot**

Til va adabiyot instituti folklor bo'limining ilmiy xodimlari bilan uchrashuv, folklor arxivi va unda saqlanayotgan yozuvlar bilan tanishish, folklor asarlarini nashrga tayyorlash jarayonlari yozib olish, nashr etish jarayoni bilan tanishish.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

### **BAHOLASH MEZONI**

№	O'quv-topshiriq turlari	Maksimal ball	Baholash mezonlari		
		2,5	“a'lo” 2,2-2,5	“yaxshi” 1,8-2,1	“o'rta” 1,4-1,7
1.	Test-sinov topshiriqlarini bajarish	0,5	0,4-0,5	0,34-0,44	0,28-0,3
2.	O'quv-loyiha ishlarini bajarish	1	0,9-1	0,73-0,83	0,56-0,7
3.	Mustaqil ish topshiriqlarini bajarish	1	0,9-1	0,73-0,83	0,56-0,7

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• kuchli tomonlari
<b>W – (weakness)</b>	• zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O – (opportunity)</b>	• imkoniyatlari
<b>T – (threat)</b>	• tўsiqlar

### “Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## “Keys-stadi” metodi

“**Keys-stadi**” - inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv «Fan»larini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeya-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

## “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni oʻzlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashgʻulotlarida, mustahkamlashda, oʻtilgan mavzuni soʻrashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashgʻulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid boʻlgan yakuniy xulosa yoki gʻoya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qogʻozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruh tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli oʻzlashtirilishiga asos boʻladi.

## **“Assesment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

## **“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

## **Venn Diagrammasi metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur

metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### **“Blits-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi. **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib

chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### III.NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-mavzu: Folklor ma'naviyat negizi. Mustaqillik davri folklorshunosligi.

##### **Reja:**

- 1.1. *Folklorning xalq ma'naviy hayoti, yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rnini.*
- 1.2. *Mustaqillik davri folklorshunosligida amalga oshirilgan ishlarning nazariy va amaliy ahamiyati.*
- 1.3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risidagi" farmonining folklorshunoslik fani rivoji, o'quv-amaliy jarayondagi mislsiz ahamiyati.*
- 1.4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Navro'z bayrami va "Alpomish" dostoni haqidagi qarorlarning folklorshunoslikdagi qimmatini.*

##### **Reja:**

**Tayanch so'z va iboralar:** folklorshunoslik, tarmoq, marosim folklori, metod, metodologiya, folklor nazariyasi, tarkib, tizim, "Alpomish" dostoni dialektologiya, Navro'z, postfolklor, tomosha san'ati, xalq sayllari

#### **1.1. Folklorning xalq ma'naviy hayoti, yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rnini.**

Xalq og'zaki ijodi namunalari ma'naviy qadriyatlar tizimining asoslaridan bo'lib, xalqimizning uzoq asrlik o'tmish tarixi, yashash tarzi, urf-odatlarini, axloqiy qarashlari, tafakkuri, olamni badiiy-estetik idrok etishning o'ziga xos shakli sifatida beqiyos qadr-qimmatga ega. Folklor asarlari mag'zidagi hikmat har bir davrda yangidan anglanadi, zamon talablariga mos talqin topadi, xalqning ma'nan boyishiga xizmat qiladi. Xalqimizning mustaqillikka erishgani va jahon hamjamiyatida munosib o'rnini egalashi tarixiy voqeya sifatida folklorshunoslik sohasining ham yangi bosqichga chiqishiga imkon yaratdi. Mazkur mavzu o'qitilishida folklorshunoslik sohadagi ilmiy-nazariy, amaliy muammolarga alohida urg'u beriladi. Boshqa «Fan»lar bilan aloqadorligini ta'kidlash, misollar keltirish va davr bilan bog'lash mavzuning dolzarbligini anglatadi.

Insoniyat tarixida so'zlar yozuv tarzida ko'rinishidan oldinroq ularni eshitib ya'ni og'zaki tarzda bilishgan deb ta'kidlash biroz noodatiy tuyulishi mumkin. Ko'pchilik uchun so'zlar haqiqatdan ham haligacha yozuv orqali emas balki



og'zaki yo'l bilan tushuniladi, hattoki ba'zilar so'zlarni ko'z o'ngida ma'lum harflardan tashkil topganligi shaklida tasvirlashga ko'nikishgan bo'lsa ham so'zlarni ko'p hollarda eshitib yoki suhbat orqali tushunishadi. Bizning shaxsiy kechinmalarimizda biz har ikkala holatning ham ma'lum bir darajalariga to'qnash kelamiz. Biz shaxsiy rivojimizda ayrim so'zlarni og'zaki tarzda o'zlashtiramiz, holbuki biz bu so'zlarni ularning qanday shaklga ega ekanligini tasavvur qilmasdan turib faqatgina bizga eshitilgan tovush yordamida qabul qilamiz. Bu ikki dunyo ya'ni og'zaki va yozma shakllar bir qancha muhim va sezilarli farqlarga ega bo'lishiga qaramasdan ularni alohida boshqa dunyo emasligini ko'rishimiz mumkin.<sup>1</sup>

## **1.2. Mustaqillik davri folklorshunosligida amalga oshirilgan ishlarning nazariy va amaliy ahamiyati.**

Xalqimizning mustaqillika erishgani va jahon hamjamiyatida munosib o'rnini egalashi tarixiy voqea sifatida folklorshunoslik sohasining ham yangi bosqichga chiqishiga imkon yaratdi. O'zbek folklorshunosligining bu boradagi yutuqlarini quyidagi tarzda umumlashtirib sanash mumkin. O'zbek folklorshunosligi tarixini istiqlol mafkupasini, milliy, madaniy, adabiy va ma'naviy qadriyatlar sathida tadqiq etish ushbu tadqiqotning asosiy ob'ekti hisoblanadi. Rasman yuz yilga yaqin tarixga ega o'zbek folklorshunosligining ildizlar ancha qadimga borib bog'lanadi. Xususan, qadimiy ashyolar, arxiologik yodgorliklar, surat va chizmalarda aks etgan folkloristik tasavvurlar, og'zaki yetib kelgan xalq ijodi asarlaridagi ijodi namunalari nisbatan folkloriy-estetik munosabatlar, bundan ming yil muqqadam yashab o'tgan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridan o'rin olgan turli folklor asarlari, mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining folkloristik qarashlari, ularning asarlarida kelgan folklor namunalari xalq og'zaki ijodi to'g'risida ilk tasavvurlarni, badiiy-estetik munosabatlarni shakllantiradi. XIX asrning oxiri va XX asr avvalida folklor asarlarini yozib olishga kirishilishi, o'tgan asrning 20-50-yillarida yangi folklorshunoslikning shakllanishi, folklor arxivining tarkib topishi, 50-80-yillarda folklorshunoslikning taraqqiyot bosqichga o'tishi, ommoviy va ilmiy nashlarning yo'lga qo'yilishi, turli yo'nalishdagi tadqiqotlarning yaratilishi folklorshunoslikning o'ziga xos tarixini belgilab beradi. Lekin ayrim maqolalar soqit etilsa, o'zbek folklorshunosligining «Fan» sifatida paydo bo'lib, shakllanib o'z taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi jiddiy tadqiq etilmaganligini qayd etish lozim. Ayni tadqiqot «Fan»ning ana shu kemitik o'rinlarini to'ldirishga – o'zbek folklorshunosligining ilmiy tarixini yaratishga qo'yilgan birinchi jiddiy qadam hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.12

Ilmiy loyihaning dastlabki yili ana shu ulkan sohaning quyidagi yo‘nalishlarini tadqiq etish asosiy maqsad qilib olindi:

O‘zbek folklorshunosligining paydo bo‘lishi, taraqqiyot bosqichlari, folklor asarlarining yozib olinishi, folklor arxivining tashkil etilishi va bugungi holati, folklor asarlari nashrlari bu yo‘nalishlarda tayanch tadqiq usullari, metodologik asososlari va metodlari, o‘zbek folklorshunoslik maktabiga tamal toshini qo‘ygan, uning rivojiga munosib hissa qo‘shgan olimlar faoliyatini o‘rganildi.

Ayni loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan amalga oshirildi. Ushbu tadqiqot “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga uzviy aloqador bo‘lib, o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimini yangilash, ularga mo‘ljallangan sifat jihatdan yangi avlod darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda asosiy manba vazifasini o‘taydi. Oliy o‘quv yurtlarida “Folklorshunoslik asoslari» va «Folklor nazariyasi” kurslarining o‘qitilishi ham bunday tadqiqotning dolzarbligi hamda ilmiy-amaliy ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

Loyihaning 2015-yilda bajarilishi rejalashtirilgan “O‘zbek folklori namunalarining yozib olinishi va nashrlari” deb nomlanuvchi bobida mavjud faktik materiallar to‘planib, folklor asarlarining ilmiy asosda yozib olinishi, o‘zbek folklor arxivining tashkil topishi, unda saqlanuvchi namunalar tavsifi, ilmiy va ommaviy nashrlarning mezonlari tarixi yoritildi.

Og‘zaki adabiyot adabiyotga aylanishi uchun uni qog‘ozga tushirish shart emas, chunki og‘zaki adabiyot yozuv kashf qilinganidan so‘ng ham davom etib kelmoqda. Walter J. Ong bizga “og‘zaki meros” dek juda ham o‘rinli atama kashf qildi ya’ni bu atama og‘zaki adabiyotning xususiyatlari yozuv paydo bo‘lgandan so‘ng ham savodxonlik olamida o‘z o‘rnini saqlab qolganligiga qaratilgan tushunchadir. Bu atama adabiyotga juda ham mosdir. Lekin u o‘zining “Og‘zaki ijod va savodxonlik” kitobida keltirgan “og‘zaki ijod xususiyatlari” tushunchasi adabiyotdan tashqari boshqa ko‘pgina soxalarni yoritib berishga ham qaratilgan edi. Shu taxlitda bu tushuncha “o‘gzaki idrok” psixologiyasini, og‘zaki adabiyot olamining barcha qirralarini hamda og‘zaki ijodning yozma adabiyot bilan musobatlarini qamrab olish uchun “og‘zaki hamda yozuvdagi so‘zlar” tushunchasiga qaraganda kengroq ko‘lamda ishlatiladi.<sup>2</sup>

Ijtimoiy-gumanitar sohalar «Fan» yo‘nalishlari tarixini ilmiy asosda o‘rganish ushbu sohalar tajribalari, yutuqlarini aniqlash, istiqbolli mavzularni belgilash imkonini beradi. Tadqiqotning ushbu qismida folklori namunalarini muntazam ilmiy asoslarda yozib olish jarayonlari, o‘zbek folklor arxivining tarixi,

---

<sup>2</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.18-20

faoliyati xronologik tartibda, izchillik bilan o'rganildi. Folklor namunalari ommaviy nashrlari, bu yo'nalishdagi tajribalar, ilmiy (akademik) nashrgacha bo'lgan bosqichlar, folklor asarlarini nashr etish prinsiplari tadqiq etildi. O'zbek folklorini tadqiq etishdagi asosiy yo'nalishlar, metod va metodologik mezonlar, keng qamrovli ilmiy-nazariy qarashlar tahlil etildi. Yuz yilga yaqin tarixga ega o'zbek folklorshunosligi tarixida munosib o'rin tutgan «Fan» namoyandalari G'ozil Olim, Otajon Hoshim, Elbek kabi olim va yozuvchilarning xizmatlari, o'zbek folklorshunosligi maktabiga asos solgan Hodi Zarif va uning safdoshlari Buyuk Karim, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya sigari zahmatkash olimlar, Iso Ernazar o'g'li, Chori Hamro, Fotima kabi folklor yig'uvchilarning xizmatlari o'z ilmiy bahosini oldi.

Istiqlol sharofati bilan dunyoqarashimizda, ongimizda ro'y bergan yangilanish, ruhiy yasharish va ma'naviy tiklanish jarayoni folklor yodgorliklarini yanada kengroq ko'lamda ommalashtirish orqali "mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalash" (I.Karimov) uchun juda katta imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Binobarin, xalqimizning o'ziga xos ilmiy tafakkuri tarixini o'zida mujassamlashtirgan o'zbek folklorshunosligi tarixining yaratilishi orqali yosh avlod ongiga ilmiy-badiiy qadriyatlarni yanada chuqurroq singdirish hamda ularni dunyo ma'naviy tamadduniga o'zining benazir ijodiy qudrati bilan munosib hissa qo'shgan o'zbek xalqi og'zaki ijodida tarannum etilgan ezgu g'oyalar ruhida kamol toptirish mazkur loyihaning asosiy konsepsiyasini tashkil etadi.

Loyihani amalga oshirishda hozirgi zamon folklorshunosligining tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik, matniy-tekstologik metodlaridan unumli foydalaniladi. Loyihani bajarish davomida an'anaviy folklorshunoslik tamoyillari bilan bir qatorda arxeofolkloristika, etnofolkloristika, etnolingvistika va lingvofolkloristikaning ilmiy-nazariy konsepsiyalari asosida ish olib boriladi.

Men yuqorida ko'rsatgan mavzuda ta'kidlanishicha, so'zlarni og'zaki tarzda hamda ularning yozma tarzda ifodalanishi haqida muloxaza yuritmoqchiman. Men so'zlarning og'zaki ijodda qanday moxirona foydalanilishiga ya'ni biz haqli ravishda og'zaki adabiyot deb atashimizga hamda bu insoniyat tarixida eng qadimgi bo'lgan og'zaki adabiyotning ijobiy, ijodiy fazilatlariga va bu adabiyotning yozma adabiyotga nisbatan qanchalik muhim o'rin tutishiga diqqatimni qaratmoqchiman.<sup>3</sup>

### **1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va**

<sup>3</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P. 15

## **adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risidagi" farmonining folklorshunoslik «Fan»i rivoji, o'quv-amaliy jarayondagi mislsiz ahamiyati.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risidagi" farmonida o'zbek tili va adabiyoti, folklorining tarixan shakllangan adabiy, lingvistik maktablari va ta'limotlari, buyuk ajdodlarimiz badiiy tafakkurining bebaho yodgorliklarini chuqur tadqiq etish va shu asnoda tinglovchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida, mustaqil fikrlaydigan va keng dunyoqarashga ega bo'lgan ma'naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalash asosiy vazifalarimizdan biri etib belgilangan. Farmonda: "Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitish, nufuzini oshirishni o'zimiz uchun eng ustuvor, uzviy davom etadigan yuksak maqsad deb bilishimiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon e'tiborimizdan chetda qolmasligi zarur" deb alohida ta'kidlangan. O'zbek folklori o'zbek tilida yaratilgan, kuylangan va bugungi kunda ham yashab kelmoqda". O'zbek folklorini o'rganish, tadqiq etish va tinglovchilarga yetkazish ona tilimiz va ma'naviy ildizimiz bo'lmish folklor merosini munosib baholab, bugungi kun talablariga mos qayta quvvatga kiritish imkoniyatini yaratadi. Mazkur «Fan» asoslarini o'zlashtirish "Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim sharti" ekanligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, ma'naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan o'rnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma'naviy qashshoq kimsa hayotda ro'y berayotgan voqealarga loqayd bo'ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo'lmas oqibatlariga olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Folklor asarlari qadim-qadimda insonning ma'naviy tarbiyasi uchun xizmat qilib kelgan va bugungi kunda ularning bu sohadagi o'rni yanadi kengaymoqda.

Og'zaki adabiyot adabiyotga aylanishi uchun uni qog'ozga tushirish shart emas, chunki og'zaki adabiyot yozuv kashf qilinganidan so'ng ham davom etib kelmoqda. Walter J. Ong bizga "og'zaki meros" dek juda ham o'rinli atama kashf qildi ya'ni bu atama og'zaki adabiyotning xususiyatlari yozuv paydo bo'lgandan so'ng ham savodxonlik olamida o'z o'rnini saqlab qolganligiga qaratilgan tushunchadir. Bu atama adabiyotga juda ham mosdir. Lekin u o'zining "Og'zaki ijod va savodxonlik" kitobida keltirgan "og'zaki ijod xususiyatlari" tushunchasi adabiyotdan tashqari boshqa ko'pgina soxalarni yoritib berishga ham qaratilgan

edi. Shu taxlitda bu tushuncha “o’g’zaki idrok” psixologiyasini, og’zaki adabiyot olamining barcha qirralarini hamda og’zaki ijodning yozma adabiyot bilan musobatlarini qamrab olish uchun “og’zaki hamda yozuvdagi so’zlar” tushunchasiga qaraganda kengroq ko’lamda ishlatiladi.<sup>4</sup>

Xullas, xalqimiz og’zaki ijodining davlat maqomida e’zozlanishini O’zbekistonning mustaqillikka erishishining ijobiy natijasi sifatida baholash mumkin.

#### **1.4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Navro’z bayrami va “Alpomish” dostoni haqidagi qarorlarning folklorshunoslikdagi qimmati.**

O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida xalqimizning ma’naviy qadriyatlari qatorida Navro’z bayrami va “Alpomish” dostoniga alohida baho berib o’tilgan. Mustaqillikdan keyin Navro’zning umumxalq bayrami sifatida e’lon qilinishi, “Alpomish” dostonining 1000 yilligining nishonlanishi ushbu qadriyatlarning asl bahosini olganligining yorqin misolidir.

O’zbek mavsumiy marosimlarining boshlanishi bevosita Navro’z bayrami bilan aloqador. Navro’z yangi yil, yilboshi deb ham yuritiladi. Ya’ni qish va yoz (ikki qutb)ning o’zaro kurashuvi, qish tomonning yengilib, chekinishi natijasida kirib keladi, degan dualistik qarash ushbu marosimda eng tayanch tasavvur hisoblanadi. Navro’zni kutib olish, tantana qilish jarayonida o’tuvchi barcha marosim halqalarida ana shu kurashni tasvirlashga, ifodalashga yo’naltirilgan. Ushbu o’rinda Farg’onada o’tuvchi Navro’z bayrami haqidagi xitoy manbasidan keltirgan ko’chirma muhim ahamiyatga ega: “Har yangi kelayotgan yilning boshida podsho va darg’alar bosh xalq ikki guruhga bo’lingan. Har bir guruh bittadan vakil saylab, unga jang kiyimlarini kiydirib o’zaro jang qildirishgan, qolganlar esa raqib tamonga toshu kesaklar otib o’z jangchilariga yordam berib turishgan. Jang tamonlarning biri halok bo’lgunicha davom qilgan. So’ngra jang natijalariga qarab yangi yilning qanday kelishini taxmin etilgan”.

S.P.Tolstov ushbu marosimni ibtidoiy xalqlar orasida keng tarqalgan ikki fratriyning marosimiy musobaqasi ekanligini yozar ekan, Sharqiy Turkistondagi Kuchi shahrida yangi yilni kutishda yetti kun davomida o’tuvchi qo’chqor, ot, tuya urishtirib yilning qanday kelishini aniqlash tantanalari va O’rta Osiyodagi uloq (ko’pkari) hamda turkmanlar orasidagi “ko’k bo’ri” to’y marosimini ham ana shu tizimda tahlil etadi.

Biz uchun e’tiborli jihat ushbu o’rinda ko’pkari (uloq) va ko’k bo’ri nikoh to’y marosimidagi bo’ri va uloq (echki) obrazlaridir.

---

<sup>4</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.16

Ko'k bo'ri marosimida uloq yoki qo'zichoqni (aslida uloq varianti to'g'ri) otda o'ngarib qochayotgan kelinni kuyov o'z jo'ralari bilan ta'qib qilib, undan uloqni olib qo'yishi kerak (Qozoqlar o'rtasidagi qiz quvdi marosimi ham ana shu tizimda turadi. Faqat u o'rinda uloq unutilgan). Ushbu marosimning tub asoslari ham yil fasllari o'rtasidagi qutblar holati, kurashi va birligiga ulanadi. Uloq – ko'klam, bo'ri esa qish timsoli. Qiz – uloq – ko'klam, yigit – bo'ri – qish yaxlit tizimni tashkil etadi. Uloq (ko'pkari) o'yinining qish vaqti o'tkazilish an'anasi ham bekor emas. Boysun tumanining olis qishlog'ida Navro'z kuni ijro etiluvchi "Gurgak" o'yini ham bevosita ana shu tasavvurlarga bog'liq.<sup>5</sup>

Navro'z bugungi kunda ma'naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ushbu bayram o'zining chinakamiga asl bahosini olish bilan birga xalqimiz qadrllovchi, sevib tantana qiluvchi xalq bayramiga aylandi. Navro'zning qadimiy mazmuni va shakli endilikda yanada boyidi. Navro'zning timsollaridan bo'lmish Sumalak taomi ham ushbu bayramning asosiy bezagiga aylandi. Endilikda dunyoning qaysi bir burchagiga bormang o'zbek Navro'zi o'zining sumalagi bilan birgalikda tushuniladi, qabul qilinadi.

Xalq og'zaki ijodidagi biron asarning yoki lug'at boyligimizdagi so'zning qadimiyligini aniqlash uchun uni yondosh xalqlar ijodida yoki o'sha millat tilida mavjudligini o'rganish yaxshi natija beradi. Bu jihatdan "Alpomish" dostoni mazmuniga oid asosiy voqaealar oltoy, tatar, boshqird, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlarda ertak, rivoyat, doston shaklida mavjud ekani asar nihoyatda qadim zamonlarda yaratilganini dalillaydi. Prof. To'ra Mirzayev doston variantlari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida uning "Alpomish", "Alpamis", "Alpamis botir", "Alip – manash", "Alpamsha", "Alpamisha va Barsin xiluv" kabi nomlarda atalishini qayd etadi. Hatto "Dada Qo'rquq kitobi"ning uchinchi bo'y (doston)i "Bamsi Bayrak" o'zining syujet voqyealari jihatdan "Alpomish"ga yaqin turishini ta'kidlaydi. O'zbek folklorshunosligida uning o'nlab variantlari to'liq va parcha holida yozib olingan. Qadimgi an'analar asosida doston kuylagan Jasoq baxshi, Yo'ldosh baxshi, Jumanbulbul, Ernazar baxshilar o'z tajribalarini Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir, Po'lkan, Abdulla shoir, Nurman Abduvov o'g'liga meros qilib qoldirganlar. "Alpomish" bu bebaho merosning noyob va betakror mo'jizasi bo'lib shuhrat topdi. 1928-yilda Mahmud Zarifov ustoz Hodi Zarif rahbarligida Fozil Yo'ldosh o'g'lidan ikki oy davomida "Alpomish"ning to'liq matnini yozib oldi. Bugungi kunda dostonning Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Xushboq Mardonaqul o'g'li, Berdi baxshi (Berdiyoz Pirimqul o'g'li), Saidmurod Panoh o'g'li, Po'lkan va Ergash Jumanbulbul o'g'li variantlari nashr etilgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li aytgan doston esa bir necha marta ustoz

<sup>5</sup> Albert Bates Lord. *Epic Singers and Oral tradition*. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.26-29

H.Zarifov va T.Mirzayev nashrga tayyorlagan shaklda e'lon qilindi.

Qabila, urug‘, elat tarixda alohida xalq sifatida shakllanar ekan, bu jarayon, avvalo, qahramonlik eposi hisoblangan maxsus yirik, epik asarda badiiy ifodasini topadi. Professor B.Sarimsoqov doston o‘zbekning birlashuvi, mustaqil xalq bo‘lib uyg‘unlashuvida qanday muhim vazii»Fan»i bajarganligini ta'riflab, shunday deydi: “Dastlab qabila, so‘ngra elat eposi sifatida vujudga kelgan “Alpomish” dostoni keyinchalik o‘zbek xalqining qahramonlik eposi sifatida tan olindi”. Haqiqatan ham, doston mazmunida Amu yoqasida yashagan aholi tarixiga oid juda ko‘p lavhalar aks etgan. Qahramonlarning o‘zaro munosabatlari: ota – o‘g‘il; ota – qiz; ona – o‘g‘il; ona – qiz; aka – uka; er – xotin; yurtni boshqaruvchi – el; oilaviy burch – farzand burchi – el oldidagi burch – vatan oldidagi burch va boshqa yo‘nalishlarda moddama-modda aniq tarzda ifodasini topgan. Natijada, doston shunchaki tinglovchining vaqtini o‘tkazish uchun yaratilgan ermak emas, xalq qahramonlik eposiga yuklatiladigan vazii»Fan»i bajaruvchi asarligi ravshan bo‘lib qoladi.

Dostonning tinglovchi e'tiborini o‘ziga jalb etuvchi nuqtasi baxshi tomonidan hikoya qilinadigan dastlabki voqyealar bayonidan boshlanadi. Shoir qadimgi o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy, Alpinbiy, Boybo‘ri, Boysari biylar (urug‘ boshliqlari) o‘tganini hikoya qiladi. Demak, aka-uka Boybo‘ri va Boysarigacha Boysun-Qo‘ng‘irot elatidagi hayot bir maromda favqulodda hodisalarsiz kechgan ekan. Ammo Boybo‘ri va Boysariga kelganda, ular farzand ko‘rmadilar. Mana shu holatning o‘zi bizga “endi nimadir bo‘ladi” degan xabarni berayotgandek tuyiladi. Bundan keyingi hayotda muayyan o‘zgarishlar bo‘lishiga farzand yo‘qligi bilan tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Chunki xalqimizda uzoq kutilgan yoki Yaratgandan tilab-tilab olingan farzand hamisha favqulodda ro‘y beradigan yangiliklardan xabar beruvchi omil sifatida baholanadi.

Doston matnini o‘qir ekanmiz, xalq og‘zaki ijodidagi epik asarlarga xos xususiyatlardan biri – farzandning yetishmovchiligi oxir pirovardida xursandchilik bilan yakunlanishiga guvoh bo‘lamiz. Asarni yaratishdan nazarda tutilgan bosh maqsad farzand dunyoga kelganidan keyin boshlanadi. “Alpomish”da ham Boybo‘ri o‘g‘il va qiz ko‘rdi, Boysari qizli bo‘ldi. Ana shu yangilikdan so‘ng qahramonlik eposi o‘z zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy vazii»Fan»i bajarishga kirishadi. Taniqli olimlar V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov bu vazii»Fan»i qabila urug‘chilik munosabatlarining yemirilishi va mamlakatni boshqaruvchi davlat tizimining vujudga kelishi bilan bog‘laydilar. Bu g‘oya keyinchalik M.Saidov tomonidan rivojlantirildi. Olimning fikricha, mamlakatni boshqaruvchi davlatni vujudga keltirish g‘oyasi jamiyat yoshlari Hakimbek, Qaldirg‘och, Barchin tomonidan ilgari suriladi. Alpomish tug‘ilgunga qadar totuv yashayotgan el endilikda ikkiga bo‘linadi. Endi Alpomish zimmasida bo‘lingan aholini o‘z

harakati bilan birlashtirish vazifasi turadi. Bu vazir»Fan»i bajarish uchun Alpomish qalmoq yurtiga safar qilishi va musofirlikda yashayotgan yurtdoshlarini Boysun-Qo'ng'irotda qaytarishi kerak. Mazkur maqsadni amalga oshirish rejasi baxshi tomonidan juda asosli tuzilgan: Barchinga qalmoq alplari sovchi qo'yishadi. Barchin xat yozib, Alpomishni Qalmoqqa chaqiradi. Ammo Boybo'ri o'g'lining o'zga yurtga safar qilishini istamaydi. U maktubni sandiqqa yashirdi. Ana shu sabab bilan doston voqyealarining faol rivojlanishi Qaldirg'och harakatiga bog'lanadi. Uning tashabbusi bilan Alpomish qo'riq vositasida Boychiborga ega bo'ladi va otasining ixtiyoriga qarama-qarshi ravishda Barchinga uylanish uchun Qalmoqqa jo'naydi. Qalmoqda esa uni katta sinov kutayotgan edi. Professor M.Saidov fikricha, bu sinovni, aslida, kelajakda davlat boshqarishni bo'yniga oladigan Alpomish uchun Barchin o'ylab topadi. Uning mulohazasiga ko'ra davlat boshqaruvchisi zotdor otga, sifatli yoyga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birga u odam jang san'atini, ayni paytda yoydan o'q otishni bilishi, jismonan baquvvat bo'lishi shart. Dostonning birinchi qismi asarni ijod qilgan ajdodlarimiz tomonidan qo'yilgan dastlabki dovonni egallash bilan belgilanadi. Ya'ni Alpomish Boysun-Qo'ng'irotda aholisini bir davlat chegarasida boshqarishni niyat qildi va bu niyatiga Qalmoqqa ko'chib ketgan yurtdoshlarini qaytarish bilan erishdi.

Alpomish ikkinchi safarida Surxayil qo'ygan tuzoqqa ilindi. Yetti yil zindon azobini boshidan kechirishga majbur bo'ldi. Endi Alpomish Toychixonni jazolashga haqli edi. Doston ijodkoriga qoyil qolish kerakki, bosh qahramonning yetti yil zindonda yotishi davomida tinglovchini zeriktirmasdan ko'plab qiziqtiruvchi lavhalarni o'ylab topgan. Doston bilan yaqindan tanishgan tinglovchi yoki matn o'quvchisining diqqati bir daqiqa ham bo'shmaydi. Avvalo, Alpomishning zindonga tushishi, keyinchalik g'oz ishtirokidagi lavhalar, Shakaman tog'idagi kampir va ovchi yigit ishtiroki, Qorajonning do'stini ozod qilish maqsadida Qalmoqqa kelishi, Tavkaning doston mazmuniga aralashuvi, Surxayil va Toychi munosabatlari, bozor epizodlari, Kayqubodning Alpomishga yordami kabilar shu qadar mahorat bilan tasvirlanadiki, biz, bir tomondan, Alpomish taqdiri guvohiga aylansak, ikkinchi tomondan, yirik epik tasvir yakunidagi qahramonlar harakatidan qoniqish hosil qilamiz.

Dostonda Alpomishning o'z oilasiga qaytishini tasvirlashda baxshi doston eshitayotgan tinglovchilarga turli yo'llar bilan hayotda ziyrak bo'lish kerak, degan o'gitni ham berib o'tadi. Xususan, Qultoy Alpomishning Alpomishligiga ishonmaydi. Shundan keyin Alpomish chap yelkasidagi Qultoy panjasining dog'ini ko'rsatadi. Shundan keyin Alpomish Qultoy qiyofasida yurtdoshlari bilan uchrashadi. Bu ko'rinishlar tasvirlangan doston sahifalari xuddi badiiy filmdagi ekran lavhalarini eslatadi va har safar "Qultoy"da Alpomish belgilari namoyon bo'ladi.



Dostondagi Barchinoy bilan bog‘liq voqealar baxshilar tomonidan alohida mehr bilan bayon etiladi. U zukkoligi, tadbirkorligi, donoligi, mardligi jihatdan Alpomishdan qolishmaydi. Surxayil kampir o‘g‘illari Barchinoyni zo‘rluk bilan xotinlikka olmoqchi bo‘lganlarida, qiz alplardan birini ko‘tarib yerga shunday zarb bilan uradiki, alpning og‘zidan ko‘pik sachraydi. Shundan so‘ng alplar Barchinga Alpomishni kutish uchun olti oy muhlat berishga majbur bo‘ladilar. Baxshi dostonida Barchin ishtirokini tasvirlashda juda ehtiyotkorlik bilan ish ko‘radi va uni eng go‘zal fazilatlarga ega ayol sifatida tasvirlaydi.

“Alpomish” dostoni badiiy jihatdan ham mukammal asar. Siz badiiylik deganda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish ko‘laminigina tushunmasligingiz lozim. Chunki badiiylik tushunchasining o‘zi juda murakkabdir. “Alpomish” dostonida qabila-urug‘chilik munosabatlarining tugallanishi va davlatning vujudga kelishi aks etgan dedik. Masalaning qo‘yilishi boshqa, uni badiiy mukammal holda ishonarli qilib tasvirlash boshqa. “Alpomish” dostoni asrlar davomida xalqimizni mardlik, qahramonlik, adolat, irodalilik ruhida tarbiyalab keldi. Mana shunday vazir»Fan»i sharaf bilan bajarib kelgan asar, albatta, badiiylik talabiga javob bera oladigan bo‘ladi, ya‘ni asar ijrosini tinglovchilar qiziqish bilan qabul qiladilar.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li mohir va tajribali baxshi bo‘lgani uchun asardagi voqealarni bayon qilishda shoshilmaydi, har bir lavha ishtirokchilarining tashqi qiyofasini, ichki dunyosini, atrofdagi tabiat manzaralarini, voqea-hodisalarni izchil ta‘riflaydi. Tinglovchi ko‘z oldida jonli voqea tasvirini namoyon qiladi. Asardagi qahramon xatti-harakatlarini dalillashga e‘tibor beradi, shuning uchun ham doston mazmuni bilan bog‘liq yechilmagan jumboq qolmaydi.

Ba‘zan kishi musulmon davrini ham o‘z ichiga olgan janubiy slavyan epik dostonchiligidan tortib “Qo‘rqut”, “Er Toshtuq”, “Koktoyxon” kabi O‘rta Osiyo dostonchiligi yoki Mongoliya va Tibet hududlariga tegishli bo‘lgan Gesar davrining turli qismlarini izchil o‘rganib chiqqanda o‘xshashlikni anglash mumkin. Ammo kishi ba‘zi Osiyo halqlariga tegishli bo‘lgan dostonchilik durdonalarida Bolqon boyi halqlaridan farqli o‘laroq shamanistik, tasavvuriy va boshqacha dunoyda ekanlik hissiyotlari seziladi. Ta‘kidlanishicha janubiy slavyan epiklarida qaxramonlar o‘z shakllarini emas, faqat kiyimlarinigina o‘zgartirishadi. Kiyimni almashtirish aslida ikkala epik ana‘nalarda ham niqoblash, tashqi qiyofani o‘zgartirish maqsadida ro‘y beradi, masalan “Odissey” dostonidagi qaxramonning o‘z yurtiga qaytib kelish chog‘ida tashqi qiyofasini o‘zgartirgani misolida ko‘rishimiz mumkin.<sup>6</sup>

### **Nazorat savollari:**

<sup>6</sup> Albert Bates Lord. *Epic Singers and Oral tradition*. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.132-136

1. Folklorshunoslikning mustaqillikdan keyingi yutuqlari nimalarda ko‘rinadi?
2. O‘zbek folklorshunosligida dolzarb mavzular sifatida nimalarni qayd etasiz?
3. O‘zbek folklorshunosligining dunyo ilm-»Fan»idagi o‘rni to‘g‘risida qanday qarashlar bor?

### Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimida so‘zlangan nutq. “Xalq so‘zi” gazetasi 1999-y. 9-noyabr.
2. Mirzayev T: Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent: SHAMS ASA. 2013.
3. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi.–Toshkent: «Fan», 2010. – 307 b.
4. Jo‘rayev O‘zbek xalq samoviy afsonalari. - Toshkent.: "«Fan»", 1995;
5. Turdimov Sh. «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. –Toshkent: «Fan», 2011. – 240 b.
6. Eshonqul Jabbor. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: «Fan», 2011. – 304 b.
7. Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.

## 2 - mavzu: Folklor asarlari nashri: ommaviy va ilmiy nashrlar

### Reja

- 2.1. *Xalq og‘zaki ijodi namunalarining chop etilish tarixi.*
- 2.2. *Folklor asarlarini nashr etish mezonlari va ularga munosabat.*
- 2.3. *“Xalq og‘zaki ijodi” ko‘p tomligining nashr etilishi yangi bir bosqich sifatida.*
- 2.4. *“O‘zbek xalq ijodi yodgoliklari” 100 jildligi o‘zbek folklorshunosligini nashr ishlaridagi so‘ngi yutug‘i*

**Tayanch so‘z va iboralar:** *ilmiy nashr, ommaviy nashr, asl manba, badiiyat, estetika, tarixiy-madaniy, qiyosiy-tarixiy, variant, versiya, ko‘p tomlik, jild*

### 2.1. Xalq og‘zaki ijodi namunalarining chop etilish tarixi

Nashrlar folklor asarlarining yangi shakldagi yashash jarayoni bo‘lib, adabiy, madaniy hodisa sifatida xalq ma'naviy hayotida muhim o‘rin egalladi. Ommaviy nashrlarda folklor asari keng kitobxon auditoriyasiga kirib borsa, ilmiy akademik nashrlar asosan ilmiy-adabiy jamoatchilik uchun mo‘ljallanadi. O‘zbek folklorshunosligida bu ikki nashr turi yuzasidan yetarli darajada tajriba to‘plandi. Mavzuning dolzarbligi ushbu nashr borasidagi tajribalarni va ilmiy nazariy qarashlarni tinlovchilarga yetkazish. Ilmiy akademik nashrlarning tadqiqotlar

uchun ahamiyatini va unga qo'yilgan talab va mezonlarni anglatishdan iborat. Ko'pdan beri o'zbek folklorshunoslari "O'zbek xalq ijodi" ko'p tomligi nashrini qayta tiklash, "O'zbek folklori yodgorliklari" 100 jildligini chop etishga kirishish orzusi bilan ishlamoqdalar. Bu yo'nalishda muayyan harakatlar ham bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to'g'risida"gi 1998-yil 13-sentyabr qarorida ham yuz jildlikni nashr etish masalasi qo'yilgan edi. Bundan 50 yil oldin folklorshunoslik bo'yicha birorta ham «Fan» doktori yo'q edi. Bugun, birgina Til va adabiyot instituti folklor bo'limida besh nafar «Fan» doktori (K.Imomov, T.Mirzayev, M.Jo'rayev, A.Musaqulov, J.Eshonqulov, Sh.Turdimov) kabilar, bundan tashqari mamlakatimizning oliy o'quv yurtlarida O.Safarov, S.Ro'zimboyev, H.Abdullayev, U.Jumanazarov, S.Yo'ldosheva, S.Mirzayeva, M.Yoqubbekova, D.Jo'rayeva, I.Yormatov kabi folklorshunos «Fan» doktori va professorlar faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Mening bilishimcha ba'zi O'rta Osiyo ana'nalarida tug'ilish va uylanish bilan bog'liq alohida hikoyalar mavjud hamda ular uzundan uzun epik dostonidan mustaqil ravishda ham talqin etiladi. Bu masala bo'yicha Qirg'iz epik dostoniga nisbatan T. Hatto ancha mulohazali fikr yuritadi.<sup>7</sup>

Bunday ilmiy salohiyat yuz jildlikni sifatli uddalash imkonini beradiki, bunda "o'zbek ijodi" ko'ptomligini nashr etishda to'plangan tajribalar muhim o'rin tutishi tabiiydir. Xalq dostonlarini nashr etish ularning namunalarini yozib olishdan hamon orqada qolmoqda Dostonlarimizning ko'pchiligi hozircha arxivning mulki bo'lib turibdi. Masalan, 1928-yilda birinchi marta "Shayboniyxon" dostoni to'la ravishda nashr etilgan edi. Holbuki, bu davrga kelib, yetakchi xalq shoirlaridan qirqdan ortiq dostonlar yozib olingandi. So'ng uzoq tanaffusdan keyin 1939-yilda "Alpomish" dostoni nashr etildi. 1941-1942-yillarda yana o'n ikki doston alohida-alohida kitoblar tarzida bosilib chiqdi. So'ng 1949-yilda urush yillari Buyuk Karimiy tomonidan nashrga tayyorlangan "Kuntug'mish" dostoni chop qilindi. Ko'ryapmizki, xalq dostonlarini nashr etishning ham o'z tarixi bor. O'ttizinchi yillarning oxiri va qirqinchi yillarning boshlarida xalq dostonlarini nashr etish ishlari ilmiy asoslarda yo'lga qo'yila boshlagan edi. Qisqa bir muddatda o'n beshga yaqin dostonning nashr etilishi folklorshunosligimiz tarixida katta voqea bo'ldi. Ammo qirqinchi yillarning oxirlaridan boshlangan madaniy merosga nisbatan nigilistik munosabatlar intensiv rivojlanayotgan folklorshunoslikka jiddiy zarba etish ishlari to'xtatib qo'yildi. Ularni yoppasiga qoralash avj oldi. Shunday sharoitda xalq dostonlarini qayta nashr etishning boshlanishi diqqatga sazovor bir ish, hatto aytish mumkinki, dostonlarimizni saqlab qolishga bo'lgan harakat

---

<sup>7</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.142

yoʻlidagi dadil qadamdir. Axir, xalqimiz bir-biridan goʻzal, badiiy yuksak, jozibador dostonlarimiz borligini va ular nashr etilayotganligini har kun, har soat qalban his etib turishi ham kerak edi-da! Ha, oʻsha nashrlarda baʼzi nuqsonlar ham mavjud. Agar ularni folklor arxivida saqlanayotgan asl nusxalari bilan kimdir qiyoslab tahlil etsa, biz oʻylagandan ham koʻp kemtiklar, yetishmovchiliklar chiqishi tabiiy. Ammo biz tilga olgan nashrlarda dostonlar qanchalik qisqartirilgan boʻlmasin, ularning asos mohiyati saqlab qolingan. Oʻsha davr uchun muhimi ham shu edi. U nashrlarni amalga oshirish davridagi bizning ruhiy holatimizni bugungi avlodning tushunishi ancha mushkul.

Mana shu xolatda endi biz ogʻzaki tarixdan ogʻzaki adabiyotni farqlashga hamda oʻgzaki adabiyotni “ogʻzaki anʼanalar” kabi noaniq ammo foydali atama qatoriga kiritamiz. Baʼzida bu atama ogʻzaki adabiyot bilan bir xil maʼno anglatadi. Yaʼni boshqacha qilib aytganda “ogʻzaki-anʼnaviy adabiyot” deyishimiz mumkin. Misol uchun kimdir “ogʻzaki anʼanalar” da uchraydigan muayyan bir hikoya haqida eshitgan yoki oʻqigan boʻlishi mumkin. Koʻp hollarda bu atama ogʻzaki tarixga soya soluvchi ogʻzaki bayonni aniqlab beradi. Bu holatda ogʻzaki anʼanalar kishilar oʻtmishda, yaqin oʻtmishda yoki hozirda sodir boʻlgan voqea-hodisalar haqida eshitishini qamrab oladi. Shuningdek bu atama erkin holatda ham uchrashi mumkin, rasmiy koʻrinishni egallasa yaʼni bu ogʻzaki tarixdir. Savodxonlik ogʻzaki tarixga nisbatan taʼsiri deyarli yoq hisob. Savodxonlik keng koʻlamda barqarorlashgan holda tarixni yozib qoldirish, maʼlumotlarni yozma ravishda saqlashda, yozma adabiyotda unga nisbatan zaruriyat seziladi.<sup>8</sup>

Qariyb oʻn besh yilga choʻzilgan tanaffusdan keyin dostonlarni qisqartirilgan holda boʻlsa ham alohida-alohida kitoblar va ikki jildda nashr etilishi bahorda chaqnagan momaqaldiraqdek aks sado berdi. Ularni xalqimiz chanqoqlik bilan kutib oldi, ular oʻsha davrga nisbatan juda katta tirajlarda tarqaldi. Hatto ketma-ket “Oʻzbek xalq dostonlari” ikki jildligining ikkinchi nashri ham amalga oshirildi. Bu – madaniy-maʼnaviy hayotimizda juda katta voqea boʻldi. Ularning qisqartirilgan nusxalar ekanligini oddiy kitobxongina emas, hatto ilmiy-ijodiy ziyolilar ham payqamay qoldi. Qiroatxonlik, hadiksirash, bir-birini chalish kuchaygan, oʻtmishni ideallashtirishda ayblash, har bir ishdan millatchilik, kosmopolitizm gʻoyalarini izlash avj olgan yillarning qoʻrquvi toʻla saqlanib kelayotgan, qatagʻonliklarning oqibatlarini batamom tugatilmagan bir paytda eslatilgan nashrlarning amalga oshirilishi katta ahamiyatga ega boʻldi. Ular folklorshunoslik taraqqiyotidagi bir bosqich sifatida munosib baholanishi lozim.

Xalq dostonlarini toʻla ravishda yozib olish ishlari 1925-yilning oxirlarida

---

<sup>8</sup> Albert Bates Lord. *Epic Singers and Oral tradition*. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P. 18

Ergash shoir repertuaridagi namunalarni qalamga olishdan boshlangan. 1925-1929-yillarda faqat Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ikan shoirlarning o'zidagina qirqdan ortiq dostonlar yozib olingan. Ular orasida "Alpomish", "Yusuf bilan Ahmad", "Alibek bilan Bolibek", "Shirin bilan Shakar", "Murodxon", "Ra'no bilan Suxangul", "Kuntug'mish", "Yakka Ahmad", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Yunus pari", "Misqol pari", "Galnor pari", "Avazxon", "Hasanxon", "Dalli", "Rvshan", "Qunduz bilan Yulduz", "Bo'tako'z", "Malika ayyor", "Intizor", "Zulfizar", "Xushkeldi", "Xoldorxon" kabi o'zbek eposining mumtoz namunalari bor. Keyingi yillarda esa, folklorshunoslarning soni ko'payganiga qaramay, boshlanishdagi shiddat, samaradorlik ko'zga tashlanmaydi. Bu ulkan san'atkorlar umrguzaronlik qilgan so'ngi 10-25 yil davomida, Islom shoirni ham qo'shib hisoblaganda, ulardan bor-yo'g'i o'ttizga yaqin doston yozib olingan. Ular orasida "Yodgor", "Rustamxon", "Jahongir", Buyuk Karimov qalamga olgan "Mashriqo", "Nurali", Mansur Afzalov yozib olgan "Orzigul" dostonlarini hisobga olmaganda, birinchi davrda (1925–1929-yillarda) to'planganlari darajasidagi badiiy jihatdan yuksaklari nihoyatda kam. Nima uchundir bu ulkan dostonchilar o'n-o'n besh yil davomida "tashlab qo'yilgan". Agar folklor asarlarini to'plashda yigirmanchi yillarning ikkinchi yarmidagi shiddat va samaradorlik keyingi davrlarda ham saqlanganda, Po'ikan shoir bilgan "Ero'g'li", Ergash shoir repertuariga mansub "Maxtumquli", Fozil Yo'ldosh kuylab kelgan "Rustami Doston", "Sultonxon", "Rustamning yaralanishi", "Oftob pari", "Yozi bilan Zebo" kabi dostonlar qalamga olingan bo'larmidi?! Boshqa baxshilar repertuaridagi namunalarni yozib olishda ham shunday manzarani ko'ramiz. Aytaylik, nihoyatda iste'dodli bo'lgan Berdi baxshidan birgina doston – "Alpomish" yozib olib qolingan. Taniqli olim Muzayyana Alaviyaning eslashicha, Abdulla Alaviy Berdi baxshidan yana "Rustamxon", "Zolimxon" dostonlarini ham yozib olgan. Ammo qo'lyozmalar bizgacha yetib kelmagan.

Ba'zi janubiy slavyan epiklarida ham qaxramonlar o'z shaklini o'zgartirishi rostdir. Masalan epikdan ko'ra ko'proq ballada hisoblanuchi "Zmija mladozenja"(kelin-kuyov ilon) yoki "Sekula se u zmayja pretvorio" (Sekula o'zini ilonga aylantirdi). Mening fikrimcha shamanistik va tasavvuriy elementlar ba'zi Balkan-Slavyan hikoyanavisligida yuzaga qalqib chiqmagan. Bu ikkala hududdagi epik dostonchilikning albatta bir-biriga bog'liq joylari bor.

Janubiy Slavyan dostoni "Kulrang otli Bamsi Beyrek" bilan Osiyo halqlari dostoni bo'lgan "Alpomish" ni solishtirganda birinchi xususiyat shundan iboratki "Alpomish" da hikoya qaxramon tug'ilishidan oldin boshlanib uning hayoti to'g'risidagi hikoyani uylanishi orqali aytib beradi, slavyan halqlarida esa hikoya qaxramonning uynashidan boshlab aytib beriladi.

Bu degani slavyan dostonlarida qaxramonning tug'ilishi bilan bog'liq hodisalar yoki bolalikdagi jasratlari to'g'risida ma'lumotlar berilmaydi degani

emas. Bir qancha qo'shiqlarda ba'zi ilk bolalik voqealari tasvirlangan, ammo tug'ilish hodisalari bilan bog'liq voqealar tasviri ko'pgina qo'shiqlarda berilmaydi. Misol uchun "Alpomish" ning birinchi qismida ikki aka ukaning farzandsizligi tufayli Oллоhdan ularning orzulari ushalishini so'rashlari "Smailag Mehoning turmush qurishi" dagi Smailag Mehoning dunyoga kelishini eslatadi.<sup>9</sup>

## **2.2. Folklor asarlarini nashr etish mezonlari va ularga munosabat.**

O'tgan asrda folklor asarlarining yozib olinishi keng tusda boshlangan bo'lib, ayni paytda ularni nashr qilish ishlari ham yo'lga qo'yildi. Lekin bu nashrlar keng kitobxon omma dunyoqarashi va davr talablariga ko'ra ma'lum qisqartirishlar, tahrirlar bilan amalga oshdi. Faqat "Xalq og'zaki ijodi" ko'p jildligi va bir qator xalq baxshilari va ma'lum bir ertakchilar ijodigina ilmiy talablarga uyg'un ravishda keng ommaga mo'ljallab chop etildi. Bir asrga yaqin to'plangan tajribalar natijasida "Alpomish" dostonining Fozil shoir varianti, "O'zbek xalq maqollari" ikki jildligi ilmiy mezonlar asosida akademik nashr qilindi. Endilikda amalga oshayotgan "O'zbek xalq ijodi yodgoliklari" 100 jildligi o'zbek folklorshunosligi tarixidagi eng mukammal nashrlardan hisoblanadi. Bu paytgacha chop etilgan barcha xalq og'zaki ijodi namunalarini chog'ishtirib, ularning barcha yutuq va kamchiliklari, qilinishi kerak bo'lgan navbatdagi masalar bilan bog'liq muammolar ushbu mavzu mazmunini tashkil etadi.

## **2.3. "Xalq og'zaki ijodi" ko'p tomligining nashr etilishi yangi bir bosqich sifatida.**

«Fan» taraqqiyotini tezlatish va yirik ishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan taklif va g'oyalarning eng muhimi va asosiysi shubhasiz "o'zbek xalq ijodi" ko'pjildligini nashr etish masalasining kun tartibiga qo'yilishidir. ko'pjildlikni nashr etish g'oyasi, uning mazmun-mohiyatini belgilash to'lig'icha hodi zarifga tegishlidir. shunday nashrni amalga oshirish zarurligini men ilk daf'a ustozdan 1962-yil iyul-avgust oylarida Toshkent va Samarqand viloyatlariga uyushtirilgan folklor ekspeditsiyasi davomidagi suhbatlarda eshitgan edim. O'shanda ustoz: "O'zbek folklori yodgorliklari" degan umumiy nom ostida tayyorlanajak bu nashr 20–25 jilddan iborat bo'lmog'i kerak. Unga xalq og'zaki badiiy ijodining barcha janrlariga oid eng sara asarlar kiritiladi. Ko'pjildlik xalq ijodkorlari og'zidan bevosita yozib olingan folklor arxividagi qo'lyozmalar asosida tayyorlanadi va keng xalq ommasiga mo'ljallangan sof filologik tanlangan nashr bo'ladi. Birinchi bosqich sifatida shunday yo'l tutilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki har qanday katta ishning muayyan tayyorgarlik bosqichi bo'ladi hozircha

<sup>9</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.136

folklor asarlarini kuylari va ijrochilik ko‘rinishlari bilan birgalikda nashr etish imkoniyati yo‘q. ehtimol, keyinroq xalq kuylari va etnografiyasini ham hisobga olgan holda 50–60, balki undan ham ko‘proq jildlardan iborat ko‘ptomliklarning nashrini amalga oshirish imkoniyati tug‘ilib qolar”, -- degan edilar.<sup>10</sup>

Shunday qilib, 1962-yilning oxiri 1963-yilning boshlaridan boshlab Hodi Zarif ko‘pjildlikni tayyorlashning tashkiliy va amaliy ishlariga jiddiy kirishib ketdi. 1963–1964-yillarda ko‘pjildlikni nashrga tayyorlash masalasi folklor sektorida bir necha marta muhokama qilindi. Nihoyat, folklor sektorining 1964- yil 18-apreldagi yig‘ilishida ko‘pjildlikni “O‘zbek xalq ijodi” degan umumiy nomda yagona tartibda raqamli tarzda emas, balki janrlar bo‘yicha jildlarning tayyorlanishiga qarab, bir xil muqova va shaklda ketma-ket nashr eta borishga kelishib olindi. Dastlab ko‘pjildlikni “O‘zbek folklori yodgorliklari” nomida har bir janrni alohida-alohida seriyalar tarzida raqamlab, nashrga tayyorlash rejalashtirilgan edi. Ish davomida dastlabki rejaning bunday o‘zgartirilishi ilmiy jihatdan unchalik to‘g‘ri bo‘lmasa-da, ko‘pjildlikni tayyorlashga jalb etilgan ilmiy xodimlarning nihoyatda ozligi, ularning tayyorgarlik darajasi bir xil emasligi shuni taqoza etardi. O‘sha yillarda, aniqrog‘i, 1961-yilda Folklor sektorida 7 nafar «Fan» nomzodi (Hodi Zarif, Mansur Afzalov, Muzayyana Alaviya, Qalli Ayimbetov, Jumaniyoz Qobulniyozov, Oxunjon Sobirov, Muhammadnodir Saidov), uch nafar ilmiy darajasiz kichik ilmiy xodim (Zubayda Husainova, Feruza Sultonova, Osim Boqiyev), ana shunday ozgina salohiyat bilan ko‘pjildlikni nashr etishga kirishish ilmiy nuqtai nazardan ham, madaniy-marifiy jihatdan ham nihoyatda katta voqeadir. Buni ko‘pjildlikning tashkilotchisi va ilhomchisi Hodi Zarifning o‘ziga xos jasorati tazida baholash zarur.

O‘sha yig‘ilishda, ya’ni 1964-yil 18-aprelda Hodi Zarif “O‘zbek xalq ijodi” ko‘p tomligiga kiradigan asarlarni tayyorlash prinsiplari” haqida batafsil ma’ruza qildi. Olim “prinsiplar”ning asosiy mohiyatini bayon qilar ekan, ma’ruzasi oxirida yana quyidagilarni alohida ta’kidlagan edi: “ko‘ptomlik tanlangan ilmiy-ommabop nashr bo‘ladi. shuni unutmash kerakki, ilmiy-akademik nashrlarni tayyorlashga nisbatan ilmiy-ommabop nashrlarni hozirlash ancha og‘ir va qiyindir. Chunki bo‘nday nashrlarda ilmiylikni to‘la saqlagan holda uning har xil did va saviyaga ega bo‘lgan barcha kishilarga mo‘ljallanganligiga ham alohida e’tibor beriladi. Shu sababli bunda tanlash bilan birga matnni to‘la saqlash o‘ta muhimdir. Folklor asarlari matnida har bir kichik detal, har bir so‘z, hatto har bir tovushning o‘z o‘rni, poetik funksiyasi bor. shu sababli matndagi biror so‘z yoki kichik bir detalni o‘zgartirish, uni o‘chirib tashlash yoki boshqa bir muqobili bilan almashtirish asarning folklorlik xususiyatini yo‘qotishi tabiiydir. Bugun sizlarga tarqatiladigan

---

<sup>10</sup> Albert Bates Lord. *Epic Singers and Oral tradition*. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.51

“prinsiplar”da bu haqda aniq qoidalar tavsiya etilayotgan bo‘lsa-da, yana bir ikki holatlarni alohida ta’kidlamoqchiman. Chunki har qanday mukammal yo‘riqnomalarda ham barcha holatlarni to‘la qamrab olish va zarur tavsiyalar berish imkoniyatdan tashqaridir. Shuning uchun ham matnni nashrga tayyorlovchi folklorshunos har bir xos holatda matnning umumiy ruhidan kelib chiqib, ilmiy nuqtai nazardan yondoshmog‘i va uni kitobxonning badiiy-ruhiy jihatdan aniq his etishiga ko‘maklashmog‘i lozim.

Hikoyachilar huddi oldingidek o‘z hikoyalarni s‘ozlashda davom etishadi. Endi savodi bor kishi faqat hikoya so‘zlash emas balki u o‘z tevarak atrofidagi o‘zlariga tegishli bo‘lgan an‘analarga taa‘luqli va boshqa elatlar hikoyalarni yig‘ish bilan ham chug‘ullanadi. Mana shunday kishilarning harakatlari natijasida endi yozma adabiy folklor hikoyanavislik janri yaratiladi. Bu janr o‘z ichiga olgan hikoyalar odatda turli yozma adabiy uslublarda yozilgan bir qancha ana‘naviy hikoyalarning elementlaridan tashkil topgan bo‘ladi. Jamiyatdagi savodxonlik va allaqachon rivojlangan, rivojlanib ulgurgan adabiyotshunoslik natijasida yangi janr vujudga keladi, qaysiki bu janr adabiy davralarda og‘zaki an‘naviy hikoyalarning odatiy shakliga hamnafas tarzda barq uradi.<sup>11</sup>

“O‘zbek xalq ijodi” ko‘pjildligini nashrga tayyorlash va chop etish ishlari tezkorlik bilan yurishib ketdi. Dastlabki uch jild (“Intizor”, “Murodxon”, “Dastagul”)ni ustoz tayyorlovchilardan keyin arxivdagi asl nusxalari bilan solishtirib, jiddiy ravishda ko‘rib chiqdi. Shu sababli ham bu jildlar yetarli darajada lug‘at va izohlar bilan ta‘minlangan. 1964-1990-yillar davomida chop etilgan 37 jild kitob folklorshunosligimiz tarixida ulkan voqea bo‘ldi. Jildlar bir-birini takrorlamaydi va ularda variantlar deyarli berilmagan. Ko‘pjildlik o‘zbek folklori deyarli barcha janrlari namunalarini qamrab olgan. Jumladan: 1. Intizor, dostonlar, 1964. 2. Murodxon, dostonlar, 1965. 3. Gulixiromon, dostonlar, 1965. 4. Dastagul, Yangi dostonlar, 1965. 5. Latifalar, 1965. 6. Suv qizi, ertaklar, 1966. 7. Oltin olma, ertaklar, 1966. 8. Gulyor, Farg‘ona qo‘shiqlari, 1967. 9. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi, dostonlar, 1967. 10. Gulnor pari, dostonlar, 1969. 11. Gulshanbog‘, dostonlar, 1969. 12. Oyjamol, ertaklar, 1969. 13. Gulpari, Namangan ertaklari, 1969. 14. Askiya, 1970. 15. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, 1-jild, dostonlar, 1971. 16. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, 2-jild, Dostonlar, 1972. 17. Oq olma, qizil olma, qo‘shiqlar, 1972. 18. Tohir va Zuhra, dostonlar, 1974. 19. Orzigul, dostonlar, 1975. 20. Hasanson, dostonlar, 1976. 21. Alpomish, doston, 1979. 22. Xoldorxon, doston, 1981. 23. Topishmoqlar, 1981. 24. Kulsa – gul, yig‘lasa – dur, ertaklar, 1983. 25. Sovet davri qo‘shiqlari, 1983. 26. Oysuluv, dostonlar, 1984. 27. Boychechak, Bolalar qo‘shiqlari, mehnat qo‘shiqlari, 1984. 28. Oltin beshik, ertaklar, 1985. 29.

---

<sup>11</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.25



Balogardon, dostonlar, 1986. 30. Bahrom va Gulandom. dostonlar, 1986. 31. Yusuf va Ahmad, doston, 1987. 32. Erali va Sherali, doston, 1987. 33. Zumrad va Qimmat, ertaklar, 1988. 34. Malika ayyor, dostonlar, 1988. 35. O‘zbek xalq maqollari, 1989. 36. Nurali, dostonlar, 1989. 37. Luqmoni hakim, ertaklar, naqlar, kulki-hikoyalar, 1990 kabi namunalar chop etildi.

#### **2.4. “O‘zbek xalq ijodi yodgoliklari” 100 jildligi o‘zbek folklorshunosligini nashr ishlaridagi so‘ngi yutug‘i.**

“O‘zbek xalq ijodi” ko‘p tomligi nashrini qayta tiklash, “O‘zbek folklori yodgorliklari” 100 jildligini chop etishga kirishish orzusi bilan ishlamoqdalar. bu yo‘nalishda muayyan harakatlar ham bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi 1998-yil 13-sentyabr qarorida ham yuz jildlikni nashr etish masalasi qo‘yilgan edi. Bundan 50 yil oldin folklorshunoslik bo‘yicha birorta ham «Fan» doktori yo‘q edi. Bugun birgina Til va adabiyot instituti folklor bo‘limida besh nafar «Fan» doktori, uch nafar «Fan» nomzodi, ikki nafar ilmiy darajasiz kichik ilmiy xodim, bundan tashqari mamlakatimizning oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib borayotgan folklorshunoslarning ilmiy salohiyat yuz jildlikni sifatli uddalash imkonini beradiki, bunda “O‘zbek xalq ijodi” ko‘ptomligini nashr etishda to‘plangan tajribalar muhim o‘rin tutdi.

Keyingi yillarda esa, folklorshunoslarning soni ko‘payganiga qaramay, boshlanishdagi shiddat, samaradorlik ko‘zga tashlanmaydi. Bu ulkan san'atkorlar umrguzaronlik qilgan so‘znggi 10-25 yil davomida, Islom shoirni ham qo‘shib hisoblaganda, ulardan bor-yo‘g‘i o‘ttizga yaqin doston yozib olingan. Ular orasida Siz yozib olgan “Yodgor”, “Rustamxon”, “Jahongir”, Buyuk Karimov qalamga olgan “Mashriqo”, “Nurali”, Mansur Afzalov yozib olgan “Orzigul” dostonlarini hisobga olmaganda, birinchi davrda (1925–1929- yillarda) to‘planganlari darajasidagi badiiy jihatdan yuksaklari nihoyatda kam. Nima uchundir bu ulkan dostonchilar o‘n-o‘n besh yil davomida “tashlab qo‘yilgan”. Axir, o‘zingiz maqolalaringizda yozganingizdk, Po‘lkan shoir yetmishga yaqin, Fozil shoir qirqdan ortiq, Ergash shoir yigirmadan ortiq, Islom shoir qirqqa yaqin dostonlarni yuksak mahorat bilan kuylab kelganlar. Agar folklor asarlarini to‘plashda yigirmanchi yillarning ikkinchi yarmidagi shiddat va samaradorlik keyingi davrlarda ham saqlanganda, so‘nggi yillarda o‘zingiz bir necha bor afsus bilan qayd etganlaringiz – Po‘lkan shoir bilgan “Ero‘g‘li”, Ergash shoir repertuariga mansub “Maxtumquli”, Fozil Yo‘ldosh kuylab kelgan “Rustami Doston”, “Sultonxon”, “Rustamning yaralanishi”, “Oftob pari”, “Yozi bilan Zebo” kabi dostonlar qalamga olingan bo‘larmidi?! Boshqa baxshilar repertuaridagi namunalarni yozib olishda ham shunday manzarani ko‘ramiz. Aytaylik, nihoyatda

iste'dodli bo'lgan Berdi baxshidan birgina doston – “Alpomish” yozib olib qolingan. Taniqli olima Muzayyana Alaviyaning eslashicha, Abdulla Alaviy Berdi baxshidan yana “Rustamxon”, “Zolimxon” dostonlarini ham yozib olgan. Ammo qo'lyozmalar bizgacha yetib kelmagan.

Og'zaki-ana'anaviy sheriyaat masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, asosan epik qo'shiqlar boshqacha xilda bolishi, ya'ni ular baytlardan iborat uzun sherlardir yoki ba'zi turdagi qofiyalarga asoslangan bo'ladi. Shu paytda savol yuzaga keladi: Epik qo'shiqchilar hamjamiyatiga yozuv amaliyotini tadbiq qilish individual qo'shiqchilarga ta'siri qanday bo'lishi mumkin?<sup>12</sup>

Xalq dostonlarini yozib olishdagi bunday nomutanosiblikni, yillar davomida tanaffuslar va uzilishlar bo'lganligini Sizning o'sha Jarko'chadagi hovlingizga borayotganimizda aytganlaringiz – “Men folklor bilan muntazam va uzluksiz shug'ullana olmaganman. Folklorga doir ko'p tadqiqotlarimni boshqa sohalardagi tekshirishlarim, xususan, tashkiliy ishlar bilan birgalikda “yurib turib” bajarganman” – deganlaringiz bilan izohlasa bo'ladimi? Yoki buning boshqa sabablari bormi?”

“Buning sabablari nihoyatda ko'p, - deya suhbatni davom etdirdi domla. – Uni bugun xohlagan nuqtai nazardan baholash va tashkil qilish mumkin. Nima bo'lganda ham yetakchi xalq baxshilarini 1929-yildan 1936-1937-yillargacha “unutib” qo'yganligimiz, urush yillari va undan keyin ham ulardan juda kam dostonlar yozib olganligimiz ijobiy hodisa emas. Buning oqibatida epik merosning muayyan qismi butunlay unutilib ketdi yoki ularning mazmuni va nomlari bu dostonlarni tinglagan folklorshunoslarning maqola va kitoblarida, keyingi davr baxshilarining xotiralaridagina saqlanib qoldi. Bunga mening xalq ijodi namunalarini uzluksiz ravishda yozib olmaganligim, ko'proq boshqa sohalarda band bo'lganligim ham sabab bo'lgandir. Ammo bu asosiy emas.

Mening nazarimda buning asosiy sabablarini o'sha yillardagi ma'naviy-mafkuraviy muhitning mohiyatidan, folklorshunoslikni qay tomonga yo'naltirilganligi va uning oldiga qo'yilgan talablardan kelib chiqib izohlash kerak bo'ladi. Gap shundaki, 20-yillarning oxirlaridan boshlab yangi davr folklorini to'plash, inqilobiy harakatlar bilan bog'liq namunalarni yozib olishning zarurligi haqidagi chaqiriqlar, hatto talablar nihoyatda kuchaydi. Barcha mafkuraviy vositalar shunga jalb etildi. O'sha yillarda biz buni zamon talabi, deb tushunganmiz va sidqi dildan xizmat qilganmiz. Mening o'zim ham 30-yillari sovet davri folkloriga bag'ishlangan ikki to'plam nashr etganman. Urushdan keyingi yillarda esa, xalq dostonlarini o'tmishni ideallashtiruvchi asarlar tarzida baholash, ularga nisbatan nigilistik munosabatlar avj oldi. Bunday vaziyatning xalq

---

<sup>12</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.25

dostonlarini yozib olish ishlarining susayishiga olib kelganligi inkor qilib bo'lmaz haqiqatdir. Bu – bir. Ikkinchidan, xalq baxshilarining dostonlarni tabiiy ijro etish sharoitlarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Baxshilar kolxoz-sovхоз teatrlariga, madaniy-ma'rifiy muassasalar ishlariga keng jalb qilina boshlandi. Ularga ijtimoiy buyurtmalar berish, hatto ular nomidan termanamo namunalar e'lon qilish kuchaydi. Bu narsa ularning an'anaviy repertuarga nisbatan loqayd munosabatda bo'lishiga olib keldi. Baxshilarda an'anaviy dostonlarni yozdirishga bo'lgan rag'bat susaydi. Ular turli bahonalar bilan yozib oluvchilardan “qocha boshladilar”. Masalan, Muzayyana Alaviya 1949-yilda Fozil Yo'ldosh o'g'lidan “Zevaxxon” va “Kunlarim” dostonlarini juda qiyinchilik bilan yozib oldi. “Alpomish” dostoni tanqiddan keyin esa, shoir uni so'rab berganlarni quvib-soladigan bo'ldi. Mening o'zim ham Bola baxshi bilan juda iliq munosabatda bo'lishimga qaramay, qanchalik harakat qilmayin, biror dostonni undan yozib ola bilmaganman. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Bugun ularning vafotlaridan ancha yillar o'tgandan keyin, nega unday bo'ldi, nega bunday bo'lmadi, deya soxta muammolar tug'dirishga zarurat yo'q. Atoqli dostonchilar Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'lkan shoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoirlarning o'zlaridangina oltmishdan ortiq doston yozib olingan. Bu dostonlar deyarli bir-birini takrorlamaydi. Boshqa baxshilarda ham yozib olinganlarini ularning variantlari bilan qo'shib hisoblaganda, dostonlarimizning umumiy soni uch yuzdan oshib ketadi. Bu nihoyatda katta boylik. Endigi vazifa ularni asrab-avaylab saqlamoq, ilmiy jihatdan o'rganmoq, eng yaxshilarini doimiy ravishda nashr eta bormoqdan iborat bo'lmog'i lozimdir.

### **Nazorat savollari:**

1. Ilk ommaviy nashrlar, ularning qimmati va kamchiliklari haqida ma'lumot bering.
2. O'zbek folklorshunosligida qaysi nashrlar mo'tabar sanaladi?
3. Xalq og'zaki ijodi asarlarini nashr etishning kelajak mezonlarini nimalar tashkil etishi kerak?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Islom Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T., “O'zbekiston”. 2009.
2. Mirzayev T: Hikoyati Go'ro'g'li sulton. So'ng so'z, lug'at, nashrga tayyorlash. – T.: Adabiyot uchqunlari. 2013.
3. Mirzayev T: Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent: SHAMS ASA. 2013.
4. Navro'z qo'shiqlari (Tadqiqot majmua, Turdimov Sh, Eshonqulov J.),-

T.: “O‘zbekiston” 2012.

5. Ravshan dostoni. -T.,1975.

6. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. 1–8-jildlar. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015, 2016.

7. O‘zbek xalq ertaklari., T.2007.

8. Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.

### 3-mavzu: Xalq dostonlari va ertaklari tadqiqining yangi tamoyillari

#### 2. Reja:

- 3.1. *Xalq dostonlari poetikasini o‘rganishning yangicha tamoyillari.*
- 3.2. *Epik asarlar syujeti, obrazlar tizimi va g‘oyaviy-badiiy talqinlari. Semantik va struktural sathida o‘rganish tajribalari.*
- 3.3. *Baxshi, doston ijrosi, dostonchilik maktablari, ertakchi va ertakchilikka masalarining o‘rganilishi.*

**Tayanch so‘z va iboralar:** *doston, ertak, epos, syujet, motiv, semantika, struktura, baxshi-shoir, doston ijrosi, dostonchilik maktablari, obraz, etnos, ertakchi, ertakchilik maktabi, an'ana, badiha, ustoz, shogird, epik bilim, epik xotira, an'anaviy takror.*

#### 3.1. Xalq dostonlari poetikasini o‘rganishning yangicha tamoyillari.

Folklorshunoslikda har bir asar ijrosi bir adabiy fakt sifatida, o‘ziga xos variant ekanligini his etish, adabiy faktning qurilishi, semantikasi, tarixiy asoslarini, tadrijiy bosqichlarini, bevosita ijrochi va tinlovchi auditoriyasi bilan bog‘lab talqin etishni anglatish muhim hisoblanadi. Folklorning an'analar san'ati ekanligini, epik bilim va epik qoliplarning folklor ijrosi, baxshilik san'atidagi o‘rmini o‘rganish dolzarb masalardan biridir. Ushbu sathda barcha folklor asarlariga va masalarga yondoshuv bugungi folklorshunoslikning ustuvor vazifalaridan ekanligini anglash muhimdir. Syujet va motivlarning kelishida, epik qahramonlarning talqin olishida, badiiy tasviriy unsurlarning namayon bo‘lishida ularning o‘rni ko‘rsatish, folklorshunoslikning so‘ngi izlanishlarida ana shu masalarning qanday yo‘sinda aks etayotgani mavzu asosini tashkil etadi. “Alpomish” dostoni syujetining turli ko‘rinish va har xil hajmdagi versiya va variantlari, variantnamo qoldiq nusxalari oltoydan tortib, volga bo‘ylarigacha bo‘lgan keng hududda yashayotgan turkiy xalqlardan xx asrdagina, shunda ham

asosan 20-30-yillarda yozib olingan. Yozib olingan materiallarning bunday qisqa davr bilan chegaralanganligi, yozma manbalarning mavjud emasligi, dostonning ko'pgina versiya va variantlari to'la nashr etilmaganligi uning yuzaga kelish davri, yaratilish joyi, tarixiy taraqqiyoti haqida tugal xulosaga kelishga monelik qilishi tabiiydir. Shu sababli men asosiy e'tiborni eposning o'zbek, qoraqalpoq va qozoq versiyalariga qaratib, uning yaratilish joyini O'rta Osiyo hududlarida belgilash va qariyb ming yil davomida bizgacha yetib kelgan variantlarda yaqin holatda og'zaki epik an'analarda ijro etilib kelayotganligini ta'kidlash bilan chegaralanish tarafdori edim.<sup>13</sup>

Viktor Maksimovich esa, doston syujetini turkiy xalqlar tarqalishi, ularning ko'chish va bir-birlariga aralashishlari bilan eposning syujet asoslari VI-VIII asrlarda oltoyda yuzaga kelgan, uning tarixiy taraqqiyoti XVI asrgacha davom etgan, degan fikrni ilgari surmoqchi bo'ldi. Atoqli xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'li variantini dostonning eng mukammal namunasi hisoblash, eposga qalmoq mavzusi keyin kirib kelganligi kabi masalalarda yakdil edik. Ko'p munozaralardan keyin o'zaro bir fikrga keldik. Shu tariqa bizning kitobimizga epos syujetining "bosqichli (stadial) taraqqiyoti", "Boysun-Qo'ng'iro't redaksiyasi", "Alpomish" dostoni va "Bamsi-Bayrak" bo'yi parallel syujetlar kabi tushunchalar kirib keldi. Boshqird versiyasi dostonning bizgacha o'zgara-o'zgara yetib kelgan qoldiq nusxa ekanligini, oltoycha "alip-manash", "Boysun-Qo'ng'iro't redaksiyasi"ga yaqinligini ta'kidlash bilan chegaralanildi. Tatar versiyasi haqidagi materiallar u paytda bizning qo'limizda yo'q edi. "Alpomish" dostonining yaratilishi va tarqalish masalalarida V.M.Jirmunskiy mening qarashlarimga ko'proq yon berib, bir fikrga kelgan bo'lsak-da, "O'zbek xalq qahramonlik eposi" kitobidagi bu muammoga oid mulohazalarni dastlabki xulosalar sifatida qabul qilish kerak. Chunki, "Alpomish" eposining, shuningdek, boshqa dosonlarning yaratilish davri va og'zaki epik an'analarda tarqalish xususiyatlari qo'shimcha tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. Bir necha turkiy xalqlarda og'zaki ravishda jonli ijro sharoitlarida bizgacha yetib kelgan eposning mohiyati va tarqalish geografiyasi haqida to'la tasavvur bera oladi. Xususan, versiyalarning (qo'ng'iro't yoki oltoy, o'g'uz yoki qipchoq versiyalarining) biri ikkinchisidan kelib chiqmaganligi yoki biri ikkinchisining davomi emasligi, ularning har biri alohida-alohida qadimiy qandaydir bir manbaga borib taqalishi va keyingi taraqqiyotida mustaqil rivojlanganligi to'g'risidagi olim mulohazalarini "O'zbek xalq qahramonlik eposi" kitobidagi doston syujetining boqichli (stadial) taraqqiyoti haqidagi xulosaning yanada rivojlantirilishi, deb baholash kerak. Shu ma'noda o'zbek "Alpomish"i bilan oltoy "Alip-manash"ini qiyosiy o'rganish yangi xulosalarga asos bo'lishi mumkin.

---

<sup>13</sup> Albert Bates Lord. *Epic Singers and Oral tradition*. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.83

### **3.2. Epik asarlar syujeti, obrazlar tizimi va g'oyaviy-badiiy talqinlari. Semantik va struktural sathida o'rganish tajribalari.**

Xalq og'zaki ijodining yetakchi xususiyatlari sanalmish og'zakilik, variantlilik, kollektivlik, ononimlik, badihago'ylik va an'anaviylik folklor asarlari ijrosi va yashashining asosini tashkil etadi. Folklor ijrochilari ayni paytda ijodkorlari hamdir. Folklor asarlarining og'zaki yashash jarayonida epik bilim va epik qoliplarning o'rni muhim. Epik bilim va qoliplar folklorning mazmun va mundarijasini belgilaydi.

Agarda qo'shiqchi shaxsan yozish va o'qishni o'rganmasa, ularga nisbatan bevosita ta'siri yoq albatta. Ammo biror qo'shiqchiga qo'shiqni yozma manbadan o'qib bergan holatda bevosita ta'siri bo'lishi mumkin. Qo'shiqchi shu yo'l bilan o'ziga noma'lum epik qo'shiqni yuzaga olib chiqish ehtimoli ham mavjud. Jamiyatda yozma adabiyotning tobora keng ko'lamda yoyilib borishi hamda insonlarning savodxonlik darajasi oshib borishi bilan bir qatorda og'zaki ijod na'munlari o'z nufuzni biroz yo'qotishi mumkin. Albatta bunday holat epik qo'shiqchiga tezda savodxon bo'lib olishdek ma'suliyatli bosim o'tkazmay qolmaydi. Agar jamiyat o'z o'rnida zamonaviy madaniyat shakllari bilan bir qatorda an'anaviy madaniyat durdonalari to'g'risida ham qayg'urib boradigan bo'lsa bu og'zaki adabiyot durdonalari kundalik hayotimizda davom etaveradi.<sup>14</sup>

Xalq og'zaki ijodi janrlarining mundarijasini ularda ifodalangan barcha ma'no qatlamlari tashkil etadi, mazmuni esa ma'lum bir vaziyatda kuylangan va mundarijaga bevosita bog'lanib turuvchi xususiy talqin hosilasi sifatida yuzaga chiqadi, voqea bo'ladi. Shu ma'noda mazmun xususiy, mundarija esa umumiylik kasb etadi. Folklor asarlari mazmuni turli sathalarda ifodalangan ijtimoiy-hayotiy, ezoterik-falsafiy qatlamlarning an'anaviy ramziy va timsoliy ma'nolarlari orqali ochiladi. Ushbu mavzuda ana shu yo'nalishdagi izlanishlar mohiyati qiyosiy o'rganiladi. Folklor namunalarining genezisi va tadrijiy rivojlanish bosqichlaridagi mifologik tafakkurdan – mifopoetik va badiiy estetik taraqqiyot bosqichlari yetakchi dostonlar, ertaklar, ulardagi syujet tiplari, yetakchi motivlar, obrazlar va tasviriy vositalar ko'lamida yoritilayotgani bevosita misollar yordamida tahlil etiladi. Yetakchi dostonchilar, dostonchilik maktablari va folklorning boshqa ijrochilari hayoti, ijodi misolida bu muhim masalarning folklorshunosligimizdagi yangicha talqinlariga alohida to'xtalinadi.

Mening bilishimcha ba'zi O'rta Osiyo ana'nalarida tug'ilish va uylanish bilan bog'liq alohida hikoyalar mavjud hamda ular uzundan uzun epik dostondan mustaqil ravishda ham talqin etiladi. Bu masala bo'yicha Qirg'iz epik dostoniga nisbatan T. Hatto ancha mulohazali fikr yuritadi.

---

<sup>14</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.22

Uning yozishicha Turkiyadan tortib Xitoygacha bo'lgan hududlarda kuylanadigan qo'shiqlar qaxramonning tug'ilishidan boshlanishi va saodatga etishishi haqidagi biografik namunalar qirg'iz ana'nalaridagi faqat bir yoki ikkita qaxramonningina emas balki butun bir gurux qaxramonlarning yoshlik davriga oid voqea hodisalarning bayon qilishiga teskaridir. Haqiqatdan ham Radlov ta'kidlashichia uning yozib olgan "Manasning tug'ilishi" uning talabiga binoan badiha usulida bayon qilingan. Manasning og'li va nabirasi Semetey va Seytekning tug'ilishi ikki "Semetey" dostonlarida hikoya qilinishi bu ikki dostonning boshlanishi ham emas va bu ikki qaxramonning hayot tarzi bu ikki doston bilan to'laligicha yoritilmaydi.

Har ikkala Bolqon va O'rta Osiyo ana'nalarida alohida tug'ilish va uylanish bilan bog'liq mustaqil qo'shiqlarning mavjudligi savol keltirib chiqarish nazdida biz bilamizki ana'naviy dostonchilik vakillarining kuylash uslublariga ko'ra ham "Alpomish", "Kulrang otli Bamsi Beyrek" dostonlarinign birinchi qismi haqiqatdan ham bir yoki bir nechta alohida qo'shiqlar to'plamidan tuzilgan. Balki "Kulrang otliq Bamsi Beyrek" dostoni uning "Qo'rquq" dostonidagi holatiga ko'ra boshqa toifaga kiritalar, lekin meni ajablantirgan tomoni shundan iboratki, "Alpomish" dostoni finland dostoni "Kalevala" dostoni qay tarzda vujudga kelishiga mos tarzda ya'ni alohida-alohida bo'lgan og'zaki-ana'naviy qo'shiqlarni bir biriga bog'lash orqali vujudga kelgandir.

O'rta Osiyo dostonlarining uylanish qo'shig'idan iborat bo'lgan ikkinchi qismi hamda Janubiy Slavyan dostonlarining birinchi qismi haqidagi mulohazalarimiz quyidagilardan iborat:

1. Qaxramon o'z do'sti yoki do'stlari tomonidan uylanish vaqtida yoki to'ydan so'ng tutib olinadi. Bunga faqatgina "Marko va Kosturlik Mina" mustasno bo'la oladi, chunki bunda Marko qancha vaqt turmush qurganligi haqida hech narsa aytilmagan hamda Markoning to'ydan so'ng tutib olinishi haqida ham hech narsa aytilmagan.
2. Qaxramon uzoq vaqt tutqunlikda bo'ladi va o'lgan deb taxmin qilinadi
3. Qaxramon xotini qayta turmush qurayotganligi haqida xabar oladi.
4. Qaxramonni tutqunlikda ushlab turgan kimsaning qizi unga tutqunlikdan qochishiga yordam beradi.
5. Qaxramon o'z uyiga etguncha turli odamlarga duch keladi.
6. Qaxramon o'z uyida yoki to'y bazmida yana o'zining eski eshik og'asini, onasini, opasini, otini, xotinini va og'irlab kelingan kelin-kuyov hamda uning bazm mehmonlari bilan uchrashadi.
7. Qaytib kelgan qaxramon esa uni tanib olguniga qadar bazmdagi mehmonlar bilan aralashib ketadi va turli o'yinlarda ishtirok etadi.
8. Davogar esa qaxramonning singlisini qayliq tarzida qabul qiladi yoki haqiqat qaror topadi.

9. Qaxramon o'zi tutqun bo'lgan joyga qaytib boradi va hanuz tutqunlikdagi do'stlarini halos etadi va bu shaxarni yakson qiladi.<sup>15</sup>

### **3.3. Baxshi, doston ijrosi, dostonchilik maktablari, ertakchi va ertakchilikka masalarining o'rganilishi.**

“Baxshi” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da to‘rt xil ma‘no berishi ko‘rsatilgan: 1 – donishmand, 2 – dostonlarni kuylovchi, 3 – dam solib davolovchi tabib, 4 – Buxoro xonligida qurilish mablag‘ini nazorat qiluvchi. Yuqoridagi to‘rt ma‘nodan uchta bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli, desak xato bo‘lmaydi. Chunki xalq orasida baxshi bo‘lish uchun inson donishmand, aqlli bo‘lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta‘kidlanadi. Ikkinchidan, “baxshi” lug‘atda izoh berilishicha, xalq dostonlarini ijro etadi. Uchinchidan, qadim zamonlardan xalq tasavvuridagi baxshilar so‘zning mo‘jizaviy fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forig‘ qiluvchi odamlar hisoblangan. Hozir va o‘tgan asrlarda baxshi davrasida ishtirok etgan odamlar doston eshitish bilan birga dardlaridan ham qutilganlar, turmush tashvishlaridan ozod bo‘lganlar, o‘zlarini yengil sezganlar. O‘zbek folklorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning ma‘lumot berishicha, baxshi mo‘g‘ulcha va buryatcha “baxsha”, “bag‘sha” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ustod”, “ma‘rifatchi” ma‘nolarida qo‘llangan. Ma‘lum bo‘ladiki, baxshi xalq tomonidan cheksiz hurmatga ega, e‘zoz topgan hunar egalari ekan. Og‘zaki-ana‘naviy doston to‘qishning o‘ziga xos xususiyati uning mavzusi ya‘ni, ma‘lum parchani takrorlashdir. Mavzu haqida bir qancha muhim ma‘lumotlarga toxtalib o‘tamiz. Birinchidan bu hikoyalarda shunchaki takrorlanib keladigan hikoya qaxramoni, otning tasviri yoki, jangu-jadal, bayram emasdir. Og‘zaki adabiyotda mavzuning alohida e‘tiborli joyi shundaki uning ma‘nosi ana‘naviy epik qo‘shiq, hikoya aytuvchilar tomonidan har gal kuylanganda doimo bir xil so‘zlar bilan ifodalanadi.

Ya‘ni og‘zaki ana‘naviy qo‘shiqda faqat mavzu emas balki butun ifoda kuylanadi.<sup>16</sup>

Dostonchilik maktablari. O‘zbek dostonchligida doston kuylash an‘anasi qadimda uch yo‘nalishda rivojlangan. Birinchidan, Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shahrizabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqay dostonchilik maktablarida do‘mbira chertib yakka holda, bo‘g‘iz ovoz bilan ijro etilgan. Ikkinchidan, Xorazmda tor, dutor, g‘ijjak, garmon, balomon, qo‘shnay, doira jo‘rligida ba‘zan yakka, ba‘zan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. Uchinchidan, Farg‘ona vodiysida dutor jo‘rligida ochiq ovozda aytilgan.

<sup>15</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.138

<sup>16</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.28



Filologiya «Fan»lari doktori, professor To‘ra Mirzayev ma'lumotiga ko‘ra, Bulung‘ur dostonchiligida qahramonlik dostonlarini ijro etish ko‘proq amalga oshgan. Bu maktabning so‘nggi vakili Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li (1872-1955) hisoblanadi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijrosidagi “Alpomish”, “Yodgor”, “Yusuf bilan Ahmad”, “Malika ayyor” kabi dostonlar yozib olingan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li Yo‘ldosh, Qo‘ldosh, Suyar shoirlarning tarbiyasini olgan. Ayniqsa, u ijro etgan “Alpomish” dostoni xalq ijodidagi eng mukammal asar sifatida butun dunyo folklorshunos olimlari tomonidan tan olingan.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining nomi hamisha Fozil shoir qatorida juft keladi. Ergash shoir (1868-1937) Qo‘rg‘on maktabi vakili edi. Nurota hududining shuhrati aynan ana shu baxshi va Po‘lkan shoir (1874-1941) ijodi bilan bog‘liq.

Doston ijrosida Xorazm usuli Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi an'anadan tamomila farq qiladi. Bu yerda doston ijrosi professional xonandalik yo‘lida amalga oshiriladi. Baxshi doston matnini yoddan ijro etadi, shu bilan birga do‘mbira chertuvchi baxshilardan farqli ravishda dostonga yo‘l-yo‘lakay o‘zgartirish kiritishdan o‘zlarini saqlaydilar. Chunki Xorazm dostonchiligida doston matn, ko‘pincha, xalq kitoblari turkumidagi XIX asrda chop etilgan kitoblarga asoslanadi. Matnga o‘zgartirish kiritish bu an'ana qoidalari bo‘yicha ma'qullanmaydi. Tabiiy savol tug‘iladi: u holda Xorazm baxshilarining doston aytish mahoratini qaysi mezon belgilashi mumkin? Xorazm baxshilari o‘z mahoratlarini dostonni aytishda mumtoz musiqaga, dostondagi she'riy parchalarni alohida qahramonning ariyasi darajasida kuylash bilan ko‘rsatadilar. Xorazm baxshilarining ovozi mumtoz ashula aytuvchilar ovozidan deyarli farq qilmaydi. Doston musiqasi ham mumtoz san'at usuliga asoslangan. Ahmad baxshi, Qodir sozchi, Boltavoy baxshi kabi san'atkorlar ijodi Xorazmda shuhrat topgan edi.

XX asr Xorazm dostonchiligi rivoji, shubhasiz, Bola baxshi - Qurbonnazar Abdullaev ijodi bilan bog‘liqdir. Xorazmda ayollarning doston aytishi ham keng tus olgan edi. Bibi shoir, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova Xorazm dostonlarini kuylashda yetuk baxshilar qatoridan munosib o‘ringa ega bo‘ldilar.<sup>17</sup>

O‘zbek dostonchilik an'anasining yana bir turi Farg‘ona vodiysida shakllangan. Namangan viloyatining shimoli Uychi, Yangiqo‘rg‘on, Chortoq atroflarida Dehqonboy Bahromov, Ikrom Rizayev, Omon baxshi Razzoqovlar ijod qilishgan. Mahalliy xalq og‘zaki ijodini o‘rgangan olim Abdurashid Sobirov taniqli folklorshunos olim Tojiboy G‘oziboyev bilan hamkorlikda mazkur dostonchilik an'anasini o‘rganib, Qo‘lbuqon, Sayram, Ariqbo‘yi (Ariqmo‘yin) maktablari mavjudligini qayd etadi.

<sup>17</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.122

### **Nazorat savollari:**

1. Folklorda an'ana deganda nimani tushinasiz?
2. Epik bilim nima va uning ijrochilar va tinlovchilar o'rtasidagi vazifasi nimalarda ko'rinadi?
3. O'zbek folklorshunosligida yetakchi o'ringa chiqqan qanday tadqiqot usullarini bilasiz?
4. Folklordagi har bir obraz, umumiy mazmun ramziy va timsoliy ma'noga ega ekanligini tushuntirib bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Islom Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T., “O‘zbekiston”. 2009.
3. Mirzayev T: Hodi Zarif suhbatlari. – Toshkent: SHAMS ASA. 2013.
4. Jo'raev O'zbek xalq samoviy afsonalari. - Toshkent.: "«Fan»", 1995;
5. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi.–Toshkent: «Fan», 2010. – 307 b.
6. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. –Toshkent: «Fan», 2011. – 240 b.
7. Turdimov Sh. Hikmat xazinasi, -T.: “O‘zbekiston ” 2016.
8. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. Toshkent, “«Fan»” 2006. B-128
9. Eshonqul Jabbor. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: “«Fan»”, 2011. – 304 b.
10. Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.

## 4-mavzu. Marosim folklori va xalq lirikasi semantikasi tadqiqi.

### *Reja:*

- 4.1. *Marosim folklorida mavsumiy marosimlarning o‘rni va badiiyati.*
- 4.2. *Navro‘z bayrami tarixi va folklorining o‘rganilishi.*
- 4.3. *Oilaviy marosimlar tadqiqi va talqinlari.*
- 4.4. *Xalq lirikasining o‘rganilishi, tasnifi va g‘oyaviy badiiy xususiyatlari.*

**Tayanch so‘z va iboralar:** *marosim folklori, mavsumiy marosimlar, oilaviy marosimlar, janr, tur, navro‘z, bayram, lirik qo‘shiq, terma, mehnat qo‘shiqlari, yor-yor, kelin salom, o‘lan, ramz, o‘xshatish, obraz, struktural poetika.*

### **4.1. Marosim folklorida mavsumiy marosimlarning o‘rni va badiiyati.**

Marosim folklorining janrlar tarkibini, ularning marosim tizimidagi o‘rni va vazifasini aniqlash, mavsumiy marosimlar, xususan Navro‘z bayrami, Boychechak marosimi bilan bog‘liq folklor namunalarining genezisi va badiiy xususiyatlarini ochish marosim tizimi va folklorining mazmunini anglashda, tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Xalq lirikasining marosimdan ajralgan janrlari evolyusiyasi va o‘ziga xos namayon bo‘lish yo‘llari bu janrlarni qiyosan tadqiq etish orqali amalga oshadi. Marosim folklor va xalq lirikasi badiiyatini o‘ganish folklorning tayanch janrlari tarixini anglash, mazmun-mohiyatini ochishda o‘ta muhimdir. Marosim folklori va uning ikki qismi – mavsumiy marosim va oilaviy marosimlar folklori har bir xalqning o‘zligini namayon etuvchi tayanch manba, asoslardan hisoblanadi. O‘zbek xalqining mavsumiy va oilaviy marosimlari tizimi hamda folklorida uning olamni anglash, unda insonning o‘rni va vazifasini belilash bilan bog‘lik dunyoqarashlari aks etgan. Xalqning barcha hayotiy tajribalari, bilim va xulosalari avvalo ana shu mavsumiy, oilaviy marosimlar tizimi va unda kuylanuvchi folklor namunalarida mujassam topgan. Marosimlar tizimi izidan borib, kuylangan qo‘shiq, aytimlardagi ramzlar, obrazli ifodalarning ma‘no qatlamlari tadqiq etib xalq ruhiyatiga, tafakkur tarixiga chuqurroq kiramiz. bu xalqning dunyo tamaddunidagi munosib o‘rnini anglab yetamiz. Marosim folklori namunalari folklorning eng qadimiy janrlari sirasiga kiradi. Folklorshunoslikda marosim folklori janrlarini ikki katta guruhga ajratish an‘anasi mavjud. Bu turlar quyidgi ko‘rinishga ega : 1) mavsumiy marosimlar folklor. 2) oilaviy marosimlar folklori.<sup>18</sup>

<sup>18</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.96

Mavsumiy marosimlar yil mavsumlarining almashinuvi avvali va oxiri, ma'lum bir xo'jalik turlarining bo'lishlanib yakun topishi, ob-havo bilan bog'liq mavsumiy marosimlarni o'z ichiga oladi. Mavsumiy marosimlarning aniq vaqti, belgilangan o'tish muddatlari mavjud va ular bir oila yoki jamoaga tegishli bo'lmay butun xalq ommasiga tegishlidir.

“Mavsum” deganda, asosan, yil fasllari nazarda tutiladi. Binobarin, mavsum qo'shiqlari qish, bahor, yoz, kuz fasllari bilan bog'liq bo'ladi. Marosim esa diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbir, yig'in demakdir. U bayram umumxalq shodiyonasi, tantana kun ma'nosini ifodalaydi. Ma'lum bo'ladiki, «marosim» tushunchasi «bayram» so'zi ifodalagan ma'nodan kengligi bilan farq qilgan ekan. Chunki marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqea bilan bog'lanishi mumkin. Bu tadbir oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo'lishi lozim. To'g'ri, biz, ko'pincha, «bayram marosimi» birikmasini qo'llashimiz mumkin, ammo bu holatda gap oilaviy marosim haqida emasligi ta'kidlanadi.

Ba'zi sheriylar qurilmalarga qo'shimcha holda biz og'zaki ijodiyotdan insoniyat tarixiga oid ko'pgina madaniyatlarga tegishli bo'lgan umumbashariyatning qanday tuzilganligi, butun borliqning paydo bo'lishi haqida so'zlaydigan buyuk afsonalarni ham meros qilib oldik. Har ikkalasiga ham ishonib kelishgan hamda ularning insoniyat tarixiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu kabilar yozuvga ko'chirilishga qadar og'zaki ijodiyot na'munalari hisoblangan. Bu hikoyat, afsonalarda hudolar hayoti, qaxramonlar, avliyolar, va afsonaviy hukmdorlar haqida so'zlanadi. Bularda hudoning yoki qaxramonning dunyoga kelishi muhimdir, chunki bu ularning qudrati va xususiyatlari haqida tushuntirib beradi. Ularning bolaligidagi qilgan jasratlari haqidagi hikoyalar ularning g'ayrioddiy shaxs ekanliklari va g'aroyib kuch-quvvatga ega ekanliklari, ularning ilohiyligini yoki jilla qursa ularning o'zgachaligi haqida gapirib beradi. Ba'zi hikoyatlarda qaxramonlar dunyodagi amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlarni bajarishda qo'shimcha qurol-yarog'lar va g'aroyib xislatlarga ega bo'lgan otga ega bo'lishadi. Ularning ilk jasratlaridan bittasi esa kelajak avlodning muttasil davom etishini ta'minlash maqsadida o'zlariga munosib yor tanlashdir. Bu hikoyatlardagi mo'jizaviy dunyoga kelgan hamda sexrli qurollangan hudo yoki qaxramonlar yuz berayotgan tartibsizliklarga barham berib, insoniyatni ajal va zulmga muhtalo quluvchi maxluqlarni yengadi.<sup>19</sup>

Dunyoda bironta xalq yo'qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlanmasin. Bayramlar butun xalq tayyorgarligi bilan o'tkaziladi. Katta shodiyonalar rejalashtiriladi. Maxsus taomlar pishiriladi, bayram liboslari tikiladi,

---

<sup>19</sup> Albert Bates Lord. *Epic Singers and Oral tradition*. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.29

o'yin-kulgilar, sayillar, tomoshalar, musobaqalar uyushtiriladi. Shuning uchun milliy bayramlar tizimida xalq tarixi, milliy xususiyatlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bu tasavvurlarni oilaviy, muayyan hudud aholisi o'rtasidagi marosimlar, qolaversa, milliy urf-odatlar to'ldiradi, mukammallashtiradi.

Oilaviy marosimlar esa aksincha bir oila va oila a'zolari hayotidagi barcha mavsumlar o'zgarishlarni o'z ichiga qamraydi. Oilaviy marosimlar mazmuni tug'ilig', to'y va motam marosimlaridan iborat va bu marosimlarda ijro etiluvchi folklor namunalari oilaviy marosimlar tarkibiy qismini tashkil etadi.

Birgina ortga qaytish qo'shiqlarigina O'rta Osiyo va Bolqon bo'yi halqlari dostonchiligi bir biriga oxshashdir. Yana bir e'tiborga molik hikoya bu o'z qaylig'iga erishish haqidagi hikoyadir. Bu kabi hikoyalar ortga qaytish qo'shiqlariga mansub bo'lishi mumkin hamda o'zlari ham alohida doston sifatida talqin qilinishi mumkindir. "Ostjakische Heldenlieder" kelin o'g'irlash haqidagi bir nechta hikoyalarni o'qish meni ajablantirdi. "Qorqut" dostonida esa bir yo'la uchta tutqunlikda tutishga mansub hikoyalarni o'qiymiz, bunda otani tutqunlikdan o'g'li qutqaradi, yana birida o'gli, onasi, xotinini tutqunlikdan ota qutqaradi. Bu kabi dostonlar Bolqon bo'yi halqlari dostonchiligida juda ko'p uchraydigan holdir. Qutqarish haqida kuylovchi dostonlar Bolqon bo'yidagi ham musulmon, ham xristian ana'nalariga mos tarzda juda katta to'plamni tashkil qiladi.

Uzbek dostoni "Ravshan" ning birinchi qismida Ravshanning uylanish to'yi va ikkinchi qismida esa uning otasi qay tarzda Ravshan o'z e'tiqodini o'zgartirishdan bosh tortgani uchun qatl etilayotgan ayni chog'da uni va do'stlarini asirlikdan halos etilishi haqida kuylaydi. Bu dostonda qaylig'iga etishish hamda qutqarish hikoyalari birga mujassamlashgan. Qatl qilishning asosiy sababi musulmonning xristian diniga o'tishdan bosh tortishi qilib ko'rsatilishi Bolqon-musulmon dostonlarida ko'p uchraydigan holdir. Shunga oxshash hikoyada Bojichich Aliya, Alibeyning bolalarini qutqarish hikoyasida esa Alibeyning o'g'illari ularning opasi xristianlikni qabul qilmaganligi uchun qatl qilinishi kerak edi. Bojichich Aliya esa qatlning oldini olish uchun o'z vaqtida etib keladi va unga ham o'z vaqtida Bosniya chegarasidan etib kelgan lashkar yordam beradi.

Chodzkoning Go'rog'li va oti G'irot o'rtasidagi munosabati haqidagi fikriga toxtalib o'tadi hamda Ravshanning oti Jayronko'zning tasviriga nisbatan o'z fikrini bildiradi. Bu qo'shiqning o'zi 99 qatordan iboratdir. Bu tasvir quyidagicha ifodalarni o'z ichiga oladi. Ravshan bek egardan so'ng bir juft tilla uzangini Jayronko'zning ikki tomoniga joylaydi hamda ipakdan toqilgan egar ayilini tortib qotiradi. So'ngra esa zar kokilli qoplamani ot ustiga tortadi.

Qoplama Jayronko'zning topig'idagi popugigacha tushib boradi. So'ngra esa 12 marta taxlangan karkidon terisidan quyushqon. Ravshan otining ikki yoniga otning taqasigacha etadigan jilovni joylashtiradi va ko'kragiga tilla qalqonni

qoyadi. U Jayronko'zning uzun bo'yniga boyin bezagini qoyadi, boshi uzra esa 40 ta bezakli halqalardan iborat yuganni qoyadi. Va nihoyat

Ravshan qilichini mahkamlab otga o'tiradi va jo'naydi. Bunday parchadagi ta'rifni takrorlash o'ta qiyindir.

Shunga qaramasdan bu ikki tarifdagi oxshashliklarni sharxlashga tog'ri keladi. Asl ipakdan to'qilgan ayilning tovlanishi, egar jabduqning tortilishi, otning yoping'ich qoplamasining ot tuyog'igacha tushib borishi, otning ko'krak qalqoni, uning bezaklari bularning hammasi Bolqon bo'yi halqlari dostonchiligida ham hosdir. Otni egar-jabdulqlash rasmi va tartibi ham har ikkalasida bir xildir. Biz turli madaniy qarash nuqtai nazaridan tashkil topgan hududlarda moslashgan asosiy ana'nalar shaklini ko'rib chiqayapmiz. Ko'p hollarda hikoyanavis hikoyani tinglovchilarga so'zlab beradi va ularni shunga taklif qiladi. Masalan Reichlning nemischada aytgan misralari bor, 3-qatorda "Seht den Helden Rawšan-Chan!" (Qaranglar kofir Ravshanjon!); 7-qatorda, "Seht jetzt den Helden Bek Rawšan!" (endi qaxramon Bek Ravshanga qarang!); 9-qator, "Schaut jetzt auf Rawšan, das unerfahrene Kind!" (Endi g'or bola Ravshanga qarang!); 11-qator, "Betrachtet den Helden Bek Rawšan!" (Endi qaxramon Bek Ravshanni kuzatinglar!); va 39-qatorda, "Betrachtete jetzt den Helden Bek Rawšan-Chan!" (Endi qaxramon Bek Ravshon-jonni kuzatinglar!). Bunday qurilma Janubiy Slavyan dostonchiligida ham tez-tez uchrab turadi.

Reichl Xorazm va Qoraqalpoq dostonlarining aynan bitta dostonchining boshqa usullarda kuylagan turlarining qisqacha tafsilotlariga e'tibor qaratadi. Reichl beshta punktlarga bo'lib ko'rsatib o'tadi.

1. Matnning bir-biriga yaqinligi shuni ko'rsatadiki, qo'shiqni yoddan ijro etish va badiha usulida ijro etish.

2. Turli ko'rinishdagi dostonlarning doimiy o'zgarib turadigan oxshashliklari tufayli ularning asosini tuzishning imkoni bo'lmaydi.

3. Qatorlarning boshlanishiga qaraganda oxiridagi qofiyalarning barqarorligi; va bu erda variantlar ko'pincha bir xil semantik doirada joylashadi.

4. U erda bir qator positsional variantlar mavjud: misralar, qatorlar, so'zlar, va frazalarning o'zaro almashinuvi.

5. Variantlar ko'pincha grafemik va fonetik jixatdan juda ham yaqindir, shuning uchun ularni o'qishda aural xatolik qilinganga oxshaydi.

Reichl xulosa qilib shuni aytadiki yozma matn va og'zaki ijroni bir biriga bog'lab qaraganda Xorazm ana'nalaridagi dostonlarda yodlab olishning ustun jixatlari va ma'lum o'lchovli tuzilmasi o'rta asrlar dostonchiligining jilla qursa bir parchasiga yaqin yondoshlikni yuzaga keltiradi.

O'rta Osiyo halqlari dostonchilik san'ati mohiyati Janubiy Slavyan halqlari dostonchiligida va lirik qo'shiqlarida ularning tuzilishi hamda ijro texnikasini

to'liq tushunib olishda juda katta o'rin tutadi. Bunga Bolqon bo'yi halqlari dostonchiligida va balladalarida ayrim jumboqli holatlarni tushuntirishga yordam beruvchi shomonistik motivlar ham kirishi mumkin.

“Alpomish” ning birinchi qismi Boybo'ri og'il farzand, Boysari esa qiz farzandli bo'lishiga bag'ishlanadi. Boybo'rining og'lining ismi Hakim, qizining ismi Qaldirg'och va Boysarining qizining ismi Barchin edi. Hakim etti yoshga to'lganda bobosi Alpinbiyning kamonini tortadi va shu asnoda Alpomish nomini oladi. Ikki aka uka bir biridan arazlashib qoladi va Boysari Qalmiqlar eriga ko'chib ketadi. Qalmiqlardan bo'lgan Suhayl esa Boysarining qizi Barchinni og'li Qorajonga olib bermoqchi bo'ladi. Buni eshitgan Alpomish esa hech kimga quloq solmasdan o'zining g'aroyib, qanotdor oti Boychibor otida qalmiqlar eriga yo'l oladi. U Qorajon bilan uchrashadi, u bilan do'stlashadi va Qorajon musulmon dinini qabul qiladi. Barchin kimning oti poygada yutganga, kimki ma'lum bir kamonni torta olsa, ming qadamdan tangani urib tushirsa va bir qancha raqiblarni engsa o'sha kishiga turmushga chiqaman deb e'lon qiladi. Boychibor poygada g'olib bo'ladi, Alpomish kamon tortishda, tangani urib tushirishda, raqiblar musobaqasida g'olib bo'ladi. Alpomish Barchinga uylanib, to'ydan so'ng o'z uyiga Barchin, Qorajon va ularning Qong'iroflik do'stlari bilan qaytar chog'ida yo'lda Qalmiq shoxi Taychaxon va Suhayl boshchiligida ularni taqib qilib kelayotgan qalmiqlar hujumiga to'qnash kelishadi. Barchinning otasi Boysari esa hali ham qalmiqlar hududida qolgan edi.

Dostonning ikkinchi qismi esa Toychaxonning qanday qilib Boysarining talon taroj qilganligi bilan boshlanadi. Buni eshitgan Alpomish qirqta sarbozini o'zi bilan olib yana qalmiqlar eriga qaytib keladi va bu safar qalmiqlar uni qo'lga olib, zindonga tashlashadi. Boybo'rining boshqa og'li Ultontoz Alpomishning o'ldi degan xabarni eshitib qarib qolgan otasidan Qong'irotkor hukmdorligini oladi va Qorajonni surgun qiladi. Alpomish qon bilan xat yozib qush orqali jo'natadi va bu xat uning singlisi Qaldirg'ochga etib boradi. U Qorajonni Alpomishni qutqarish uchun yuboradi ammo uning urinishi zoe ketadi. Qalmiqlar shoxining qizi Tavkaoyim Alpomishni sevib qoladi. Tavkaoyimning yordami tufayli Alpomish tutqinlikdan halos bo'ladi hamda Boychibor ham o'zini ozod qiladi. Ular Qalmiqlarni engadi va shoxni o'ldirib Alpomish uyiga yo'l oladi.

Yo'lda Alpomish Ultanning sarbonlarini uchratadi va ular Alpomish o'ldi degan xabarni eshitgandan so'ng Qo'ng'rotda nimalar ro'y berganini so'zlab berishadi. Alpomish ularni o'ldiradi. Boychibor ona yurtiga etib borganda kishnab yuboradi va Boychiborning onasi ularga qo'shiladi. Yo'ldagi yosh sarbon esa Alpomishning o'limi haqidagi xabardan so'ng Alpomishning oilasi nimalarni boshidan o'tkazganlarni aytib beradi. Shundan so'ng Alpomish yalang oyoq, juldur kiyimda tuyalar podasini boqib yurgan singlisi Qaldirg'ochni uchratadi. Etti yildan

beri joyidan qimirlamagan qari tuya hojasini tanib uni kutib olish uchun to'satdan oyoqqa turadi va uning atrofida etti marta aylanadi. Qaldirg'och o'z akasini taniganday bo'ladiyu ammo Alpomish o'zining kimligini oshkor qilmasdan yonidan o'tib ketadi. Keyin Alpomish Boybo'ring qo'ylarini boqib yurgan Qultoyga duch keladi. Alpomish unga o'zining kimligini aytadi ammo qariya hamma umidalarini yo'qatganligini aytadi va unga ishonmaydi. Alpomish ham shu qariyaning o'zi bir vaqtlar uning elkasida qoldirgan tamg'asini ko'rsatib o'zini tanitmaydi.

Alpomish uyiga etib borganda tanimasliklari uchu Qultoy bilan kiyimlarini almashtirib oladi. Alpomish Ultoning uning oilasiga xususan onasiga, otasiga, o'g'li Yodgor va Barchinga bo'lgan munosabatini kuzatadi. Shu asnoda kamondan otish musobaqasi boshlanadi. Alpomish o'ziga berilgan kamonni sindiradi va bobosining kamoni talab qiladi. Lekin bu kamonni Ultoning bironta odami ham torta olmaydi ammo yosh Yodgor buning uddasidan chiqadi. Alpomish esa buni hech qiyinchiliksiz tortib nishonni aniq mo'ljalga oladi. Kechqurun Alpomish lapar aytishishda ishtirok etadi va Barchin bilan aytishadi va Barchinning unga bo'lgan sadoqatiga shubha yoqligiga amin bo'ladi. Shu vaqtga kelib ko'pgina mehmonlar Qultoy qiyofasida kelgan kishi aslida Alpomish ekanligini bilib qolishadi va Alpomishning o'zi ham buni tasdiqlaydi. Ulton va uning tarafdorlari o'z qilmishlariga ko'ra odilona jazo topishadi. Boysari ham Qalmiqlar eridan o'z yurtiga qaytib keladi va Alpomish Qo'ng'iro't yurtida o'z hukmronligini o'rnatadi.<sup>20</sup>

#### **4.2. Navro'z bayrami tarixi va folklorining o'rganilishi.**

O'zbek mavsumiy marosimlarining boshlanishi bevosita Navro'z bayrami bilan aloqador. Navro'z yangi yil, yilboshi deb ham yuritiladi. Ya'ni qish va yoz (ikki qutb)ning o'zaro kurashuvi, qish tomonning yengilib, chekinishi natijasida kirib keladi, degan dualistik qarash ushbu marosimda eng tayanch tasavvur hisoblanadi. Navro'zni kutib olish, tantana qilish jarayonida o'tuvchi barcha marosim halqalarida ana shu kurashni tasvirlashga, ifodalashga yo'naltirilgan. Ushbu o'rinda Farg'onada o'tuvchi Navro'z bayrami haqidagi xitoy manbasidan keltirgan ko'chirma muhim ahamiyatga ega: "Har yangi kelayotgan yilning boshida podsho va darg'alar bosh xalq ikki guruhga bo'lingan. Har bir guruh bittadan vakil saylab, unga jang kiyimlarini kiydirib o'zaro jang qildirishgan, qolganlar esa raqib tamonga toshu kesaklar otib o'z jangchilariga yordam berib turishgan. Jang tamonlarning biri halok bo'lgunicha davom qilgan. So'ngra jang natijalariga qarab yangi yilning qanday kelishini taxmin etilgan". S.P.Tolstov ushbu marosimni ibtidoiy xalqlar orasida keng tarqalgan ikki fratriyning

<sup>20</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.142-149



marosimiy musobaqasi ekanligini yozar ekan, Sharqiy Turkistondagi Kuchi shahrida yangi yilni kutishda yetti kun davomida o'tuvchi qo'chqor, ot, tuya urishtirib yilning qanday kelishini aniqlash tantanalari va O'rta Osiyodagi uloq (ko'pkari) hamda turkmanlar orasidagi "ko'k bo'ri" to'y marosimini ham ana shu tizimda tahlil etadi. Biz uchun e'tiborli jihat ushbu o'rinda ko'pkari (uloq) va ko'k bo'ri nikoh to'yi marosimidagi bo'ri va uloq (echki) obrazlaridir. Ko'k bo'ri marosimida uloq yoki qo'zichoqni (aslida uloq varianti to'g'ri) otda o'ngarib qochayotgan kelinni kuyov o'z jo'ralari bilan ta'qib qilib, undan uloqni olib qo'yishi kerak (Qozoqlar o'rtasidagi qiz quvdi marosimi ham ana shu tizimda turadi. Faqat u o'rinda uloq unutilgan). Ushbu marosimning tub asoslari ham yil fasllari o'rtasidagi qutblar holati, kurashi va birligiga ulanadi. Uloq – ko'klam, bo'ri esa qish timsoli. Qiz – uloq – ko'klam, yigit – bo'ri – qish yaxlit tizimni tashkil etadi. Uloq (ko'pkari) o'yinining qish vaqti o'tkazilish an'anasi ham bekor emas. Boysun tumanining olis qishlog'ida Navro'z kuni ijro etiluvchi "Gurgak" o'yini ham bevosita ana shu tasavvurlarga bog'liq.

Respublikamizning bir qator viloyatlarida turli shakl-ko'rinishlarda hozirgacha amal qilib kelayotgan "Boychechak" marosimi ham ushbu tizimning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Marosimni nisbatan to'laroq halqalarini Namangan viloyatining Chortoq tumani hududida kuzatish mumkin. Bu yerda bolalar erta ko'klam boychechakni topib, bir guruh bo'lib, jo'raboshi yetagida xonadonma-xonadon kezib chiqishadi. Boychechakchilar har bir xonadon darvoza oldida to'xtaganda, jo'raboshi ushbu qo'shiqni kuylaydi:

– Boychechak aytib keldik eshigingizga,  
Xudoim o'g'il bersin beshigingizga, –

Guruh esa:

– Bota, bota-bo, boychechak,  
Uyingizga choch tilla.  
Iloyim o'g'il bersin,  
Otginasi Rahmatilla,

Uy egasi ko'rinish berganda:

– O'tirib chiqing,  
O'tirib chiqing,  
Yog'och tovoqni to'ldirib chiqing, –

deydilar.

Xonadon sohibi jo'raboshi tutib turgan boychechakni ko'rib, tavof qilib, himmatiga yarasha ul-bul boychechakchilarga beradi. Uy egasi xasislik qilib hyech narsa bermasa, boychechakchilar:

O‘qim, o‘qim,  
Qozoningga ...! –

deb yomon tilak bildiradi.

Biz ushbu marosimni dunyoning boshqa mintaqalarida yashovchi xalqlaridagi ko‘klam marosimlari bilan qiyosan o‘rganib, uning qadimiy ko‘rinishini tikladik.

Qadimda o‘tgan “Boychechak” marosimida qish va ko‘klamning kurashini ifodalovchi sahnalar bo‘lgan. Boychechak tutgan jo‘raboshi ko‘klam siymosida o‘z sheriklari – aniqrog‘i, jangchilari bilan xonadonma-xonadon yurib qishni haydagan. Qish siymosi va jangchilarini ifodalovchi tomon qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Bir-bir chekinib xonadonlarni va nihoyat butun qishloqni tark etgan. Qish va ko‘klam o‘rtasidagi asosiy kurash katta dalada bo‘lgan. Bunda qish va yoz tomon ramziy jang qilib, aytim-qo‘shiq kuylab bahslashganlar.

Xorazmda sumalak sayli bilan aloqador bo‘lgan “Ashshadarozi” o‘yini va unda aytiluvchi laparning tub asoslarini qish va yoz munozarasi sifatida baholash o‘rinli. Ushbu laparni marosimdan butkul ajralib sof san'at namunasiga aylangan versiyasi sifatida Farg‘ona vodiysida keng yoyilgan “Sochingni uzun deydilar” laparini keltirish mumkin. Ushbu lapar matnida “qish”ning so‘rog‘i va “ko‘klam”ning javoblari asl mohiyatga yaqin turibdi. Laparda yigit qizning sochi, qoshi, ko‘zi, yuzi, beli, qanday ekanligini so‘raydi. Qiz esa ko‘klamdagi tabiat tasviri orqali o‘zini ta'rif etadi. Bizning nazarimizda, “Kichkinajon-kichkina” qo‘shig‘i ushbu aytishuv, bahsning so‘nggi nuqtasi bo‘lgan. Ya'ni qo‘shiqni kuylab, o‘rtadagi raqqosni ma'lum obrazlarga taqlidan kichrayib borishi barobarida tariq timsoliga kelishi, buni raqsda ko‘rsatishi ko‘klamning qishni yengib urug‘ (tariq) holatiga keltirishini ifoda qilgan.

Xalqimizning yoz (ko‘klam) va qish(kuz) haqidagi tasavvurlar tizimini quyidagi jadval orqali yanada aniqroq ifoda etish mumkin (shaklga qarang)

Tavsifi	Yoz (ko‘klam)	Qish (kuz)
Marosimi	“Boychechak” marosimi	Ko‘k bo‘ri (ko‘pkari, uloq xalq o‘yini )
O‘simlik timsoli	Boychechak	Urug‘ (tariq, bug‘doy)
Zoomorfik timsol	Echki (uloq)	Bo‘ri
Insoniy timsol	Qiz	Yigit
Asosiy qo‘shiqlari	“Boychechak”, “Ashadarozi”, “Qoshingni qaro deydilar” o‘yin raqslari.	“Kichkinajon kichkina”, “Gurgak”
Muqaddas taomi	Sumalak	Yorma (halim)

Ushbu jadval yoz va qish marosimlar tizimi, ularning o'tish tartibi, ijro etiluvchi qo'shiq raqslari va timsollarini aniq ko'rsatadi.

Men "Hikoyanavis" asarimda dastlab yozma matnning hech qanday ta'siri sezilmaydigan yoki umuman yoq bolgan asl og'zaki ana'naga doir og'zaki kuylanadigan qo'shiqlarni tasvirlab berishga harakat qildim. Boshqa yozma matnlardan oldingroq yozilgan Gomer dostonlari matnlarini to'laqonli tushunib olishimiz uchun avvalombor biz og'zaki ijod jarayonlari va ularning asl shakli haqidagi bilimlar zarur bo'ladi. Gomer donstonlari masalasiga kelsak, biz boshqacha holatni o'rganamiz, ya'ni epik qo'shiqchi – baxshi, Gomerining o'ziga toxtalamiz. Yozma matnlar qanday aniq yo'llar orqali og'zaki ijod an'analariga ta'sir qilish mumkin degan savol tug'iladi.<sup>21</sup>

S.P.Tolstov o'zi keltirgan faktlarni tahlil etar ekan, ularning tub asosini zoorastrizmdan ham ancha qadimiyroq bo'lgan ibtidoiy odamning animistik tasavvurlari zahirida an'analashganligini yozadi. Bu esa bizning "Go'ro'g'li" turkumi o'zagidagi syujet, yetakchi motiv va asosiy obrazlarning animistik dunyoqarash va e'tiqodlarga bog'liq talqin etganimiz to'g'ri ekanligini ko'rsatish barobarida, turkumning tub manbalari qadim-qadimdan kelayotganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

#### **4.3. Oilaviy marosimlar tadqiqi va talqinlari.**

Oilaviy marosimlar tizimi ham o'z navbatida ikki katta guruhga ajralardi. 1) To'y marosimlari folklori. 2) Motam marosimlari folklori.

To'y marosimi folklori. To'y dunyoning barcha xalqlariga xos marosimdir. «To'y» atamasi «to'ymoq», «el-yurtga ziyofat bermoq» ma'nolari orqali muayyan kishi hayotidagi muhim burilish nuqtasini anglatadi. Binobarin, to'y ham moddiy, ham ma'naviy oziqlanish marosimidir. O'zbek to'y marosimlari nikoh to'ylari bilangina chegaralanib qolmay, balki xatna (sunnat), beshik to'yi kabilardan ham tashkil topgandir. Bu marosimlar turli munosabatlar bilan o'tkazilganligi tufayli ularda ijro etiladigan folklor janrlari ham xilma-xillik kasb etadi. Beshik to'ylari folklori odatda, beshik to'yi oiladagi birinchi (to'ng'ich) farzand uchun o'tkaziladi va u tantanali kechadi. Ba'zan oilaning moddiy turmush darajasi bilan bog'liq xolda bu tartib o'zgarishi xam mumkin.

Nikoh to'ylari folklori. O'zbek to'y marosimlari sirasida nikoh to'ylari rasm-rusmlarga, irim-sirim-larga boyligi, folklor materialining rang-barangligi bilan aloxchida ajralib turadi. Bunday rang-ba-ranglik hamda ko'tarinki ruh marosimning maqsad va vazifasi bilan insonning o'z hayotining yangi davriga qadam qo'yishini alohida quvonch orqali nishonlashi bilan bog'liqdir. Haqiqatan

---

<sup>21</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.106

ham, nikoh to‘yi yigit va qizlar hayotida ro‘y beradigan eng baxtli, eng unutilmas marosim sanaladi. Chunki mana shu marosimdan so‘ng ular xayotga boshqacha ko‘z bilan, ya‘ni ham jismonan, ham ma‘nan kamolotga erishgan kishilar ko‘zi bilan qaraydilar. Nikoh to‘yi marosimi barcha uzvlari bilan yaxlit olib qaralsa, anchagina katta muddatni o‘z ichiga oladi. Chunki, marosim qiz tanlash voqealaridan boshlanib, nikoh kechasidan birmuncha muddat keyin o‘tadigan kuyov chaqiriq marosimi bilan yakunlanadi. O‘zbek nikoh to‘ylarining birinchi bosqichiga o‘lan va lapar kabi folklor janrlari mansubdir.

O‘lan janri. Ulan asosan o‘tmishda ko‘chmanchilik va yarim ko‘chmanchilik tarzida hayot kechirgan o‘zbek urug‘-lari o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lib, u qiz uzatar oq-shomidan bir yoki bir necha kun ilgari qizning uyida o‘tkaziladigan “qiz oqshomi”, “qizlar majlisi” kabi turli nomlar bilan nishonlanadigan tantanada ijro etilgan. O‘lan shahar hamda qadimdan o‘troq tarzda hayot kechiruvchi aholi o‘rtasida uchramaydi. M.Alaviya to‘rri ko‘rsatib o‘tganidek, to‘yda lirik qo‘shiqlar ijro etiladigan, umuman, lirik qo‘shiqlar rivojlangan joylarda o‘lan kam aytiladi. Ayrim hollarda qiz uzatar kechasi kuyovning uyida o‘tkaziladigan bazmlar-da ham o‘lan ijro etilishi mumkin. Bunda o‘lan to‘yni qizitish, mehmonlarning kayfiyatini ko‘tarish maqsa-dida aytilgan. Ammo “qiz oshi” da ijro etiladigan o‘lanlar umumo‘zbek to‘ylari uchun barqaror an'anadir.

Janrning paydo bo‘lishi masalasida ham o‘zbek fol'kloristikasida aniq bir fikr yo‘q. M. Alaviya bu masala xususida to‘xtalib, o‘lan janri qadimda yor-yor, lapar janrlari bilan bir bo‘lib, keyinchalik ular turli joylardagi traditsiya, turmush tarzi bilan bog‘liq holda differentsiyalashib, mustaqil janr holiga kelib qolgan, deb yozadi. Lapar va o‘lan janrlarining genetik jihatdan aloqadorligi u qadar shubha uyg‘otmasa ham, lekin yor-yor va o‘lan janrlarini tarixan bir hodisa sifatida olib qarash ishonarli emas. Farg‘ona vodiysining ayrim joylarida o‘lan misralari oxiriga «yor-yor» so‘zini radif qilib ish-latish hollari bu ikki janrning o‘tmishda bir bo‘lgan-ligini bildirmaydi. Chunki yor-yor va o‘lan janrlari ijro usuli jihatidan keskin farqlanadilar. Umuman, o‘lan, lapar, yor-yor janrlarining paydo bo‘lishi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va o‘zgachaliklar masalasi alohida tadqiqot talab qiladi. O‘lan ijrosida erlar va ayollarning gozma-yuz turishi, ularning so‘z vositasida mubohasa yuritishlari ushbu janrning tarixan islom ta'siri u qadar kuchli bo‘lmagan ko‘chmanchi turkiy xalqlar, jumladan, ko‘chmanchi o‘zbek urug‘lari orasida vujudga kelganligidan dalolat beradi. O‘lan janrining ijrosi ommaviy xarakter kasb etib, u professional o‘lanchilar tomonidan boshlanib, ular tomonidan boshqarib borilsa ham, ko‘p hollarda, unga boshqa kishilar ham qo‘shilishlari mumkin. O‘lanning tematik doirasi keng bo‘lib, unda ishqda vafodorlik, yor visoliga mushtoqlik motivlari yetakchilik qiladi. O‘lan aytishni, odatda, yigitlar boshlab berishadi.

Yigit:

Qarg'a deyman, ko'zingdan, qarga deyman,

Qarg'a uya soladi jarga, deyman.

Ko'rmaganga ko'p vaqt, oylar o'tdi,

Ulan bilan so'rashay — «horma» deyman.

Qiz:

Ulanlarim, ko'zingdan, o'lanlarim,

Sen bo'lding shu dunyoda gumondorim.

Sen bo'lsang shu dunyoda gumondorim,

Kuya-kuya kul bo'ldi suyaklarim.

O'lan poetik jihatdan ham qator o'zgachaliklarga ega bo'lib, ulardan biri tekstning izchil to'rtlik shaklidagi band tuzilishiga ega ekanligidir. Har bir band esa aa, ba tarzida qofiyalanadi. O'lanlarning aksariyati ritmik jihatdan o'n bir hijoli vaznga ega. O'lan to'y marosimining mustaqil janri sifatida Toshkent, Namangan, Leninobod oblastining Asht rayonidagi "j" lovchi o'zbeklar yashaydigan qishloqlarda jonli yashashda davom etyapti.<sup>22</sup>

Lapar to'y marosimining birinchi bosqichiga mansub bo'lib, ijrochilar sostavi, ijro usuli jiha-tidan o'lanlarga yaqin turuvchi janrdir. Ammo u o'zining iisbatan voqyebandligi hamda hazilga boyligi jihatidan o'lanlardan farqlanadi. Mazkur janr Toshkent atroflaridagi qishloqlarda, shuningdek, Janubiy Qozog'istonda yashovchi o'zbeklar o'rtasida keng tarqalgan. Lapar asosan kelinning xonadonida o'tkaziladigan «qizlar bazmi»da ijro etiladi. Buni ayrim joylarda «lapar kechasi» deb ham yuritishgan. Ushbu bazmda qizlardan tashqari ayollar va kuyov tomonidan yigitlar ham ishtirok etishgan. Bazmni boshqarish keksaroq, tajribali va so'zga chechan ayollardan biriga topshi-rilgan. U kechada odobsizlik qilgan yoki qo'pol mazmun-dagi laparlarni aytgan yigitlarni majlisdan hay-dab chiqargan. Shu sababli lapar aytishuv kechalari juda tartibli va yoqimli kechgan.

To'ylardagi yor-yorlar, o'lan aytishlar, kelin salomlar xalq poetik ijodining mumtoz namunalari bo'lib qolgan. Hayot tajribasi oilaviy turmush totuvlikdan boshlansa, mehr yetakchi bo'lsa, keyingi hayot ham inoqlikda o'tishini tasdiqlagan. Shuning uchun kuyov-kelin ko'nglini bir-biriga yaqin qilish orzusi qayta-qayta tilga olinadi:

*Shoyi ko'ylak yengiga*

*Tut qoqaylik yor-yor,*

---

<sup>22</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.111

*Kelin-kuyov ko'ngliga  
O't yoqaylik yor-yor.*

### **4.3. Xalq lirikasining o'rganilishi, tasnifi va g'oyaviy badiiy xususiyatlari.**

Xalq lirikasining spetsifik xususiyatlarini ko'rsatish barobarida, xalq qo'shiqlarining bilvosita mifologik tasavvurlarga bog'liq ekanligi oydinlashadi, tarixan mifologik tafakkurga bog'langan xalq maishiy xayotini ifodalayotgan obrazlar tizimi inson ko'nglini, uning o'y-kechinmalarini, orzu istaklarini badiiy-estetik sathda aks ettirar ekan bu murakkab ijodiy jarayonda go'zal san'at namunalari paydo bo'lishining guvohiga aylanimiz. Xalq qo'shiqlarining obrazlar tizimi, ularning ma'no qatlamlari tadqiq etilgan so'ngi tadqiqotlar tahlili orqali ushbu ilmiy ishlar mohiyati oydinlashadi. Lirik – lira deb atalgan qadimgi yunon musiqa asbobining nomidan olingan bo'lib, badiiy adabiyotda inson his-tuyg'usini, ichki kechinmalarini ifodalovchi asarlar nazarda tutiladi. Ma'lumki, hayotda turli voqyea-hodisalar ro'y beradi. Lirik asarlarda ana shu turmush lahzalari ta'sirida shaxs qalbida paydo bo'lgan kechinmalar ifodalanadi. Ana shu xususiyati bilan lirika eposdan farqlanadi.

Xalq og'zaki ijodidagi har bir lirik qo'shiq qachonlardir dil so'zlarini aytish bilan ruhiy olamidagi o'zgarishlarni bildirmoqchi bo'lgan yigit-qizlarning qalb daftaridagi muhrlangan misralardan iborat. Hatto bolalar folkloriga mansub allalarni olasizmi, "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga" qo'shiqlarini olasizmi, lirik asarlar talabiga javob berishi shart deb hisoblash kerak.

O'zbek folklorshunosligida lirik tur janrlari ko'pchilikni tashkil etadi va ularning ibtidosi marosim lirikasiga bevosita va bilvosita bog'lanadi. Avvalo, ta'kidlash lozimki, xalq qo'shiqlari mavzuyida misol qilib keltirgan, nazariy ma'lumot berilgan, tahlilga jalb qilingan hamma to'rtlik shaklidagi she'riy asarlarning hammasi badiiy adabiyotning lirik jinsiga mansubdir. Shu bois «lirik qo'shiqlar» atamasini shartli tushunish maqsadga muvofiqdir. Aslida folklorshunoslikda lirik qo'shiq deganda, ishq-muhabbat izhor etilgan to'rtliklarni nazarda tutish qabul qilingan. Agar mehnat, marosim asarlarida yetakchi maqsad ish qurollari, mavsumdagi tabiat o'zgarishlari, marosim tartiblari his-tuyg'u vositasida aks etsa, lirik qo'shiqlarning asosiy vazifasi muhabbat tuyg'ularini ifodalash bilan belgilanadi. Binobarin, lirik qo'shiqlarda mohiyatan ichki kechinmalar, ishq-muhabbat dardiga yo'liqishdan mamnunlik kayfiyati ustuvordir.

Har bir yigit-qiz balog'at yoshiga yetganda muhabbat tuyg'usini boshidan kechiradi. Insonning sevishi yoki sevilishi, ishq kechinmalariga yo'liqish tashvishlari uni shoirlikka undaydi. Lirik qo'shiqlar matnini o'rganish ularni faqat muhabbat tuyg'usini yurak qon tomirlaridan his qilgan shaxslargina yaratishi

mumkin, degan xulosaga olib keladi. Endi ikki tarafdin iborat bo'lgan ishq kechinmalarida bir tarafgina ishtirok etsa yoki o'rtada muayyan to'siqlar paydo bo'lsa, muhabbat savdosi avj oladi, yechimsiz holatda insonni qiynaydi. Masalan:

*Qizil gulni ekasan-da, ketasan.  
Parvarish qilmasang, ekib netasan?  
Yo 'liga intizor qilgan qora ko'z,  
Oxir mening bu boshimga yetasan.*

misralarini hayotdan qoniqqan, tashvishi yo'q odam aytishi mumkin emas. Atigi sakkiz so'zdan iborat bu matnda inson taqdiri, qismati aks etganiga hych kim shubha qilmasa kerak.

Lirik qo'shiqlar, eng avvalo, lirikligi bilan insonni o'ziga jalb qiladi. Ularda lirik qahramon fikri tuyg'u vositasida ifodasini topadi. Ayrim qo'shiqlar matnidagi muayyan misrani o'zgartirish ularning yaratilishi maqsadiga ham ta'sir qiladi, umumiy mazmun mohiyatiga ham ta'sir qiladi:

*Gulijon o'zi chaqqon,  
Qoqi gulini taqqan,  
Bir kulishi bor uchun  
Oyijoniga yoqqan.*

Endi "Oyijoniga"ni "Sevgilisiga", "Dadajoniga", "Buvijoniga", "Opajoniga" va h.k. so'zlar bilan almashtiraylik. Yoki "Gulijon" ismini o'zgartiraylik. "Qoqi gul" o'rniga "atirgul" qo'yaylik. Xullas, bir qo'shiq asosida bir necha namunalar vujudga kelishi mumkin. Shunda gap seviklisi haqida ketsa, ishqiy mazmun; onasi-otasi haqida ketsa qiz farzandni erkalash mazmuni yetakchi bo'lib qoladi. Ammo har ikkala holatda ham lirik qo'shiq mohiyatan katta o'zgarishga duch kelmaydi. Men bu asarimda o'z diqqatimni ko'proq shu savolga qaratmoqchiman hamda Milman Parry ning "Og'zaki adabiyotlar to'plami" da keltirilgan dalillarni o'rganib chiqmoqchiman. Gertsegovinalik Tesan Podrugovich, Vuk Karadjichlar XIX asrning boshlarida to'plagan doston-qo'shiqlar juda ham ajoyib misollar bo'la oladi. Karadjichning ikkinchi to'plamida esa eskiroq davrga oid qaxramonlar haqida kuylovhi Podrugovichning o'n uchta asari o'rin olgan. Parry to'lamlarining hammasida jilla qursa bitta matn boshqalarida ham takror keladi. Karadjichning matnlarida uchraydigan o'xshashkilarni o'rganib chiqqanimda matnning yuz yillardan keyin yig'ilgan dostonlarga nisbatan ta'sirini o'rganib chiqdim.

Parry matnlarini uch xil bir biriga nomutanosib toifalarga bo'lishimiz mumkin. Ba'zi matnlar (A toifa) Karadjich ana'nalaridan holi tarzda ta'kidlashimiz

mumkinki, boshqa yozma to'plamlar bu doston-qo'shiqlarga ta'sir o'tkazmagan. Bu kabi doston-qo'shiqlar asl an'anaviy og'zaki ijod namunlari hisoblanadi. B toifaga oid doston-qo'shiqlar A toifadagilarga nisbatan ancha yirikdir hamda bu kabi doston-qo'shiqlarga Karadjichning yozma matnlari ta'siri seziladi. C toifadagi matnlar esa tog'ridan tog'ri nusxa ko'chirish yoki doston-kitobdan so'zma so'z yod olingan matnlardir. Men hohlardimki eskiroq davr bilan yangiroq davrlarga oid matnlar o'rtasidagi farqni ko'rish uchun har bir toifadan bittadan matnни o'rganishni va shu maqsadda C toifaga oid matn va Parryning ilk to'plamiga kiruvchi matn bilan boshlayman.

Adam Parry 1933-yilda o'zi to'plagan birinchi oltita doston-qo'shiqlariga sharx sifatida otasining Dubrovnikda hukmronlik qilganligi haqidagi ma'lumotlarni chop etadi. O'sha ma'lumotlar sirasiga esa dalada ishlab yurgan kezlarida miyasida charx urgan turli mazulardan cheta chiqish hollari va qo'shiqlar, an'anaviy she'rlar yaratish jarayonlarini tushunishda tajriba orttirganligi kiradi. Adam Parry chop etgan "Kor Huso" asari parchasida esa Milman Parry matnning ta'siri mavzusi borasidagi o'z kuzatishlarini yozadi. O'zining hanuzgacha chop etilmagan sharxlari orasida u Gertsegovinalik qo'shiqchi Milovan Vojichich haqida quyidagi fikr-mulohazasini yozadi: "Milovan maktab yoshlaridan boshlab qo'li etgan hamma doston-qo'shiq kitoblarni o'qib chiqqanligini aytgan. Bir vaqtlar unda juda yirik to'plam hosil bo'lganligi va qashshoqlik kezlarida ushbu to'plamni kilosini o'n dinordan sotganligini aytgan. Uning Serb mumtoz qo'shiqlari repertuari juda yirik bo'lgan va men ular orasidan tasodifiy tartibda tanlab olgan "Zenidba Krarlja Vukasina" tog'risida yozib ber deb so'raganimda shunisi ma'lum bo'ldiki u bu asarni qanchalik mukammal o'rganganligi, uning tasviri asl nusxadan faqatgina ba'zi qatorlarning joylashuv tartibi va ba'zi so'zlarni qayta joylashtirishdan iboratgina bo'ldi xolos."<sup>23</sup>

Xullas, lirik qo'shiqlar mohiyat nuqtai nazardan inson qalbining izhori darajasida e'zozlangan asarlar turkumini tashkil qiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Mavsumiy va oilaviy marosimlarning xalq hayotidagi amaliy ahamiyati nima?
2. Navro'z bayrami va xalq taqvining o'zaro uyg'unligi siz yashayotgan hudud folklor namunalarida ham aks etganmi?
3. Xalq lirikasining marosim bilan bog'liq bo'lmagan janrlarida yetakchi motiv sifatida nimani ko'rsatasiz?

---

<sup>23</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.107



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Alaviya M. Lirik qo'shiqlar // O'zbek folklori ocherklari.-Toshkent.: «Fan», 1998, 1-tom, 244-254-betlar;
3. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari va badiiyati. DDA. T., 1995;
4. Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarida o'xshatish.-Toshkent.: «Fan»,
5. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. - Toshkent.: «Fan», 1986;
6. Navro'z. Navro'z bayrami bilan bog'liq qo'shiqlar, afsona va rivoyatlar. To'plab, nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzaev, M.Jo'raev. – Toshkent.: «Fan», 1992;
7. Navro'z qo'shiqlari (Tadqiqot majmua, Turdimov Sh, Eshonqulov J.),-T.: “O'zbekiston” 2012.
8. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. T.: «Fan», 2010. 307 b.
9. Turdimov Sh. Poeticheskie simvoly v uzbekskix narodnyx liricheskix pesnyax. Diss., kand.filol., nauk. T.: 1987. – 184 s.
10. Eshonqulov J. O'zbek xalq qo'shiqlari badiiyati masalalari. Toshkent San'at va madaniyat institutida 2015 yil 16 aprel kuni “Xalq ijodi milliy ma'naviyatimiz asosi” mavzuida bo'lib o'tgan bo'lib o'tgan ilmiy anjuman materiallari. –Toshkent, 2015. – B.44–48.
11. Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.

### 5-mavzu. O'zbek mifologiyasi manbalari va talqinlari.

#### *Reja:*

- 5.1 *O'zbek folklorshunosligida mifologik olam tadqiqi..*
- 5.2 *Yetakchi mifologik obrazlarning o'rganilishi.*
- 5.3 *Mif va epos, mif va ertak, mif va xalq lirikasi masalalarining kun tartibiga qo'yilishi.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *o'zbek mifologiyasi, mifologik obraz, mif va epos, mif va ertak, mif va qo'shiq, folklorizm, o'zbek folklorshunosligi, mustaqillik, mustaqillik davri folklorshunosligi.*

## 5.1 O‘zbek folklorshunosligida mifologik olam tadqiqi

O‘zbek folklorshunosligida mifologiya mavzusi yangi sohalar sirasiga kiradi. O‘zbek mifologiyasini o‘rganish bevosita mustaqillik sharofati bilan keng ko‘lam oldi. Bu sohada amalga oshirilgan barcha turdagi tadqiqotlarni keng ommaga, xususan ta‘lim tizimiga olib kirish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Mazur mavzu o‘qitilishida zamonaviy folklorshunoslikda kechayotgan yangilanish jarayonlari va mavjud muammolarga alohida urg‘u beriladi. Mustaqillik yillaridagi o‘zbek folklorshunosligida ro‘y berayotgan yangilanish jarayoniga alohida nazar tashlash zarur. Nashr qilinayotgan yangi folklor namunalari, ilmiy-nazariy adabiyotlar, maqolalar ushbu mavzu muhokamasi uchun mavzu bo‘ladi. Ma‘ruzada hozirgi o‘zbek folklorshunosligining yetakchi tamoyillarga e‘tibor qaratiladi. O‘zbek folklorshunoslarining mifologik obrazlar, mifologik dunyoqarash, folklor janrlaridagi mif va mifologik syujetlar, motivlar tadqiq etilgan kitob hamda maqolalari tahlil etiladi. Ularda aytilgan fikr mulohazalar o‘rganiladi. Ob‘ektga tarixiy, milliy, umuminsoniy, mustaqillik g‘oyasi nuqtai nazaridan yondashuv masalalarini muhokama etish kerak. Mif qadimgi odamning borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo‘lib, koinotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma‘budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e‘tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga olgan. O‘zini jonli tabiatning ajralmas bir qismi sifatida anglagan insonning o‘z atrofidagi moddiy mavjudlikning paydo bo‘lishi, yashash tarzi, ibtido va intihosini mifologik timsollar ramzlar orqali ifodalagan

Dunyo, insoniyat, odamning paydo bo‘lishi haqidagi qadimgi sodda hikoyalar ilmda “mif” deb ataladi. Mif (yunoncha mythos – so‘z, afsona, rivoyat) so‘zi lug‘atda “Qadimgi kishilarning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo‘lib, koinotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma‘budalar va ilohlar to‘g‘risidagi e‘tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga oladi”, - deb izohlangan. “Mifologiya” miflarni o‘rganuvchi «Fan»dir.<sup>24</sup>

Mifologik tasavvurlar ibtidoiy udum va marosimlarda ritual o‘yinlar sifatida namoish qilingan. Mifologik tasavvurlar marosimlar, xalq san'atining barcha turlar va folklorda o‘ziga xos ravishda davom etgan.

Mif tushunchasi tarkibini totemizm, fetishizm, animizm so‘zlari tashkil etadi.

“Totemizm” so‘zi lug‘at va qomusiy kitoblarda qayd etilishicha, “uning urug‘i”dan olingan ekan. Shimoliy Amerikada yashovchi qabilalardan biri kishilar

<sup>24</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.123

bilan hayvon va o‘simliklarning muayyan turlari o‘rtasida qon-qarindoshlik bor deb hisoblaganlar. U hayvonlar ov qilinmagan, o‘ldirilmagan, go‘шти yeyilmagan. O‘simliklar esa e‘zozlangan. Bu odat dunyodagi hamma xalqlarning e‘tiqodida ham bor bo‘lib, bugungi kungacha saqlanib kelmoqda.

“Fetishizm” so‘zi lug‘at va qomusiy kitoblarda portugolcha “feitico”, fransuzcha “fetiche” – sehrli narsa ma‘nosini ifodalashi qayd qilingan. Uning asosini qadimgi zamon odamlarining jonsiz narsa-predmetlarda ilohiy fazilat bor deb tushinishlari tashkil etadi. Ma‘lumki, inson hayoti davomida o‘zi bilmagani holda quyosh, oy, yulduzlar, tog‘, suv kabi narsalar bilan ham munosabatda yashaydi. Ayniqsa, quyosh, suv inson taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi. Qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimiz o‘zlaricha pichoq, non, o‘choq, tandir, do‘ppi, kitob, supra, ayniqsa, o‘q, yoy kabi narsalarni ham muqaddas hisoblaganlar.

Fetishizm tushunchasida turli narsa-predmetlardan tashqari ranglar, tush ham saqlanib qolgan. Oq, qora, ko‘k, yashil, qizil, malla kabi ranglar muayyan ma‘noni bildirgan. O‘zbekiston bayrog‘idagi yashil, oq, ko‘k, ular oralig‘idagi qizil, burchakdagi oy va 12 yulduzlarning hammasida ramziy ma‘nolar mujassamlashgan. Odatda, yashil yoshlik, qizil, bir tomondan to‘kilgan qon, ikkinchi tomondan, qizlik g‘ururi, oq hayot, qora, bir tomondan fojia, ikkinchi tomondan, buyuklik, ulug‘lik, malla yetuklik, balog‘at ma‘nolarini aks ettirgan.

“Animizm” lotin tilidagi “anima”dan olingan bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda jon, ruh ma‘nosini anglatishi ta‘kidlanadi. Animizmga binoan qadimgi ajdodlarimiz dunyodagi hamma narsaning joni bor, deb bilganlar. Ibtidoiy davrda inson tana va ruhdan iborat hisoblangan. Ruh tanani tark etganda inson o‘ladi, deb o‘ylashgan. Har bir narsaga bu tushuncha tatbiq etilgan. Shuning uchun mifologiyadagi totemizm va fetishizm hodisalariga ishonch bildirishni, ularning mavjudligiga bo‘lgan e‘tiqodiy munosabatni animizm bilan bog‘lash ma‘qul. Soddaroq qilib aytganimizda, odamning totemizm va fetishizm hodisalariga ishonishi uyg‘un holatda animizmda namoyon bo‘ladi. So‘zning magik – mo‘jizaviy kuchidan foydalanib inson ruhiyatiga ta‘sir etish, uni xastalikdan ozod qilish, tabiatiga ruhiy tetiklik bag‘ishlash animizm fazilatlarini hisoblanadi. Shuning uchun xalq baxshilari deganda baxshilik, ya‘ni shifo bag‘ishlash ma‘nosi saqlanib qolgan.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi “sav”, avval aytganimizdek, “otalar so‘zini eslash” ma‘nosini bersa, uni turkiy tilimizdagi “mif”ni ifodalovchi so‘z deyish mumkin. Arablardagi “asotir” ham shu ma‘noni beradi. Ammo butun dunyodagi olimlar qadimgi hikoyalarni “mif” deb atashgani uchun o‘zbek folklorshunosligida ham aynan shu atamani qo‘llash ma‘qul topilgan.

## 5.2. Yetakchi mifologik obrazlarning o'rganilishi.

Dunyo xalqlari miflarini folklorshunoslik quyidagi ko'rinishlarda tasnif etadi. 1) Ibtido haqidagi miflar (olamning yaratilishi va yerdagi hayotning paydo bo'lishi haqidagi miflar); 2) Samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar); 3) antropogenik miflar (g'ayrioddiy xislatlarga ega bo'lgan afsonaviy peronajlar haqidagi miflar – masalan, Gerakl, Gelgamish, Doroko'z, Ozitqi, Albasti, Alanqasar, Hubbi haqidagi miflar); 4) kult miflar (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bog'liq miflar, masalan hosildorlik kulti, suv kulti, o'simlik kulti, olov kuti haqidagi miflar); 5) totemistik miflar (totem-ajdod haqidagi qadimgi tasavvurlar asosida kelib chiqqan miflar); 6) kalendar miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar – masalan : Ayamajuz, ahman-dahman, chilli, to'qson hisobi, bilan bog'liq miflar); 7) o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar (“Go'ro'g'li” dostoni, Go'ro'g'li, Rayhon poshsho, Hiloloy, Zaydinoy obrazlari asosida turuvchi miflar); 8) animistik miflar (jon haqidagi tabiatdagi barcha narsalarning, butun borlikning joni haqidagi tasavvurlar ifoda topgan miflar); 9) manistik miflar (ajdodlar homiyiligi haqidagi miflar); dualistik miflar (ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o'zida aks ettiruvchi miflar); 1) esxatologik miflar (olamning intihosi, oxir zamon to'g'risidagi miflar)

O'rta Osiyoda yashaydigan xalqlarning o'tmish hayoti bilan bog'liq miflarning dastlabki namunalari “Avesto” kitobida berilgan. “Avesto” Qadimgi Xorazmda yashagan ajdodlarimiz ijodi mahsulidir. Avval og'zaki tarzda vujudga kelgan asar yozuv madaniyati shakllangandan so'ng Zardusht tashabbusi bilan 12 000 mol teriga oltin harflar bilan bitildi. XI asrdagi afsonalar qayd etilgan “Kitobi Dada Qo'rquq” va XIII asrda yashagan O'g'uz qog'on haqidagi “O'g'uznoma” deb atalgan kitoblarda (ulardagi voqyealar, afsonalar matnining ancha avval yaratilganini bildirsa ham ilmiy asarlarda XI va XIII asrlar qayd etilgan) turkiy qabila va urug'lar tarixi haqidagi miflik tasavvur ifodalari o'rin olgan. “Avesto” kitobida ezgulik olamini yaratuvchi Ahura Mazda bilan yomonlik olami xudosi Angra Manyu (Ahriman) qarama-qarshi qo'yilgan. Ular o'rtasidagi munosabatni tasvirlash davomida Mitra, Anaxita, Kayumars, Jamshid, Gershasp kabi qahramonlar ishtirok etgan voqyealar bayon etiladi.

Chodzkonning Go'rog'li va oti G'iroq o'rtasidagi munosabati haqidagi fikriga toxtalib o'tadi hamda Ravshanning oti Jayronko'zning tasviriga nisbatan o'z fikrini bildiradi. Bu qo'shiqning o'zi 99 qatordan iboratdir. Bu tasvir quyidagicha ifodalarni o'z ichiga oladi. Ravshan bek egardan so'ng bir juft tilla uzangini Jayronko'zning ikki tomoniga joylaydi hamda ipakdan toqilgan egar ayilini tortib qotiradi. So'ngra esa zar kokilli qoplarni ot ustiga tortadi.

Qoplama Jayronko'zning topig'idagi popugigacha tushib boradi. So'ngra esa 12 marta taxlangan karkidon terisidan quyushqon. Ravshan otining ikki yoniga otning taqasigacha etadigan jilovni joylashtiradi va ko'krigiga tilla qalqonni qoyadi. U Jayronko'zning uzun bo'yniga boyin bezagini qoyadi, boshi uzra esa 40 ta bezakli halqalardan iborat yuganni qoyadi. Va nihoyat

Ravshan qilichini mahkamlab otga o'tiradi va jo'naydi. Bunday parchadagi ta'rifni takrorlash o'ta qiyindir.<sup>25</sup>

Turkiy xalqlar mifik dunyosi aks etgan tarixiy-adabiy kitoblardan biri "Kitobi Dada Qo'rqut" hisoblanadi. Qo'rqut ota ismi bilan ham mashhur bo'lgan Dada Qo'rqut o'z vaqtida odamlarga yaxshilik qilish, mushkullarini osonlashtirishda ko'makdosh bo'lgan. Kelgusi hayot haqida bashorat qiluvchi, Alloh nazar solgan tabarruk insonlardan biri sifatida hurmat topgan. Turkiy mifologiyaga oid voqyea-hodisalar tasvirlangan yana bir kitob "O'g'uznoma" deb ataladi. "O'g'uznoma"da voqyealar bayoni qisqa-qisqa jumlar vositasida berilgan. Jami 42 maktubni eslatuvchi matnning har birida to'qqiztadan jumla bor. Har bir jumla ifodalanayotgan voqyea haqida muhim ma'lumot berish vazifasini bajargan. O'g'uz ismli qahramon bo'lib, nomada tasvirlanishicha, oyog'i ho'kiznikidek baquvvat, beli bo'rinikidek ingichka, yag'rini silovsinnikidek, ko'kragi ayiqnikidek keng edi. "O'g'uznoma"da turkiy xalqlar mifik dunyoqarashidagi bo'ri, ot, ayiq totemlari, kun, oy, yulduz, ko'k, tog', dengiz, yoy, o'q fetishlari muhim o'rin olgan. Nomada Ko'k bo'ri O'g'uzxonga bir necha marta yo'l-yo'riq ko'rsatadi, uni xavfdan ogoh qiladi, unga g'alaba xabarini beradi. Bu bilan animizm belgilarining "O'g'uznoma"da yetakchi ekanini dalillash mumkin.

Xullas, o'zbek mifik olamini alohida bir sirli olamga qiyoslash mumkin. Unda xalqimiz, yurtimiz, tariximiz o'zining mukammal ramziy qiyofasini namoyon etadi. Ayni choqda o'zbek xalqining qadim zamonlardan boy og'zaki ijodga va mifik asarlarga ega boy xalq ekanini isbotlaydi. Xalq og'zaki ijodi janrlari. Har bir «Fan», sohaning muhim nazariy masalalari bo'ladi. Badiiy adabiyotni o'rganuvchi «Fan» adabiyotshunoslik deb ataladi. Xalq og'zaki poetik ijodini o'rganish sohasini folklorshunoslik deymiz. Folklorshunoslik adabiyotshunoslik tarkibidagi mustaqil «Fan» hisoblansa-da, o'rganish ob'ekti badiiy adabiyot bo'lgani sabab bir qator umumiy va mushtarak jihatlar bor. Xususan, janrlar masalasi adabiyotshunoslik uchun ham, folklorshunoslik uchun ham muhim hisoblanadi. Faqat adabiyotshunoslikda yozma adabiyot vakillari qalamiga mansub g'azal, ruboiy, doston, noma kabi (mumtoz adabiyot); she'r, hikoya, roman, drama kabilar (zamonaviy adabiyot) ning janr xususiyalari o'rganiladi. Folklorshunoslikda esa xalq og'zaki adabiyotidagi maqol, qo'shiq, ertak, doston kabi janrlarning o'ziga xoslik tomonlari tadqiq etiladi. Ammo qaysi shaklda yaratilgan adabiyot ekanidan qat'i nazar har bir yo'nalishdagi yutuqlar va kashfiyotlar adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga qo'shilgan hissa sifatida baholanaveradi.

---

<sup>25</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.P.144

### 5.3. Mif va epos, mif va ertak, mif va xalq lirikasi masalalarining kun tartibiga qo'yilishi.

Mifologik tafakkur folkloriy tafakkurga aylanganida badiiy-estetik sathga o'tadi. O'zbek eposining qadimiy namunalari bo'lmisg "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Kuntug'mish" kabi dostonlarning tub ildizida, ularning syujeti, yetakchi motivlarining asosida mifologik tasavvur va dunyoqarash mahsuli bo'lmish syujet va motivlar turipti. Xususan, "Go'ro'g'li" va "Alpomish" dostonlarining o'zagini tashlik etuvchi alplik tizimi bevosita o'zbek mifologik olami dunyoqarashlari bilan bog'liqdir. Eposda alplik tizimi qahramonlik dostonlari uchun mezonlaridan biri sifatida qaraladi. Alp epik ijodda qahramonlik eposiga xos bo'lgan atama. Xalqning "alplik tizimi" bilan bog'liq tasavvurlarining o'lchamlarini quyidagicha tasvirlash mumkin.

Avvalo, qahramonning tug'ilmasdanoq homiy eranlar nazarida turganligi – nazarkarda ekanligi (eposning qadimiy shaklida alp to'g'ridan to'g'ri ilohlar farzandi, deb talqin etiladi).

Baxtli yulduz oyida tug'iluvchi, bo'lajak qahramonning paydo bo'lishi haqida dushman yurt kohinlarining karomatlar aytishi. Ularning bolani yo'q qilishga urinishlari.

Qahramonning dushmanlarni dog'da qoldirib ulg'aya borishi davomida "alplik dardi"ga yo'liqishi. Masalan: "Go'ro'g'li" dostonida qahramon qabiladoshlariga "ozor" yetkazadi. Lekin bu "ozor" shunchaki bezovta etish emas. Odatda qahramon – alp xalqning quvvati mudrayotgan, omma inert (sust) holatga tushgan bir davrda uni kuchga endiruvchi o'ziga xos "uyg'otuvchi" sifatida paydo bo'ladi. Bu davrda sust avlod ichida passionar (bunyodkor) avlod tug'iladi. Alp passionar avlod vakiligina emas, darg'asi – yo'l boshchisi hisoblanadi. Hamisha passionar(faol) avlod inert(sust) ommaning "halovati"ni buzadi. Bu jarayonsiz etnos quvvatga kirmaydi.<sup>26</sup> Ya'ni, yangi sifat bosqichiga chiqmaydi. "Alpomish"dagi "zakot" masalasining kun tartibiga chiqishi va elning bu yangilikdan bezovta bo'lib ko'chishi, ana shu ikki avlod o'rtasidagi kurashning ifodasidir. Dostondagi "zakot" motivi asosida "alplik dardi" badiiy kodlari turibdi. Dostonning boshqa variantlarida bu motiv turlicha talqinlarda keladi. Ammo mohiyat o'zgarmaydi. Dostondagi "alplik dardi"ni ifodalovchi voqealar tafsiloti, passionar avlodning kuchga kirish davrida uni inert omma qabul qilolmasligini aks ettiradi. Ba'zan inert(sust) ommaning soyasi alpning xatti-harakatlariga ham ta'sir o'tkazadi. Alp esa bu davrda yo'l qo'ygan xatolari badalini ulg'ayganda to'laydi. Etnosning savobu gunohi alpning taqdirida, Alpning savobu gunohi etnosning

<sup>26</sup> Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.33

taqdirida namoyon bo‘ladi. “Alplik dardi” nafaqat alpning, balki “etnosning yangilanish bo‘lag‘asidagi “dardi”, uyg‘onish, harakatga kelish “og‘riqlari” hamdir.

“Alplik dardi”ning “tanlangan” (alp) va “tanlovchi”chilar – homiy eranlar o‘rtasida bevosita muloqatning boshlanganligini bildirishi. Yanada aniq aytilsa, “alplik dardi” qahramonning yerda tug‘ilib, ma‘lum muddatga “yovvoyilashgan” (etnosning ushbu davrdagi zamon va makon ta‘siriga qisman tobe turgan) ruh va tanini eranlar iqlimiga moslashtirish muddatidagi qarshiliklari va uyg‘unlashuv jarayoni ekanligi.

Eranlarning o‘z makonida qahramonning jismi va ruhini ilohiy nur hamda sharob bilan toblab, emlab (bamisli asov tulporni jilovlab) darddan xalos etishi. Unga alplik siru sinoatlarini o‘rgatishlari. Qahramonning alp sifatida qayta yaranishi.

Qahramonning alplik kuch-qudratiga, bilimiga, sehri xususiyatlariga, belgilariga ega bo‘lishi.

Qahramonning eranlardan alplik qurol-aslahalarini olishi.

Qahramonning eranlardan alp sifatida bajaradigan vazifasi – yerdagi missiyasi va taqdirini (ibtido va intiho) bilishi. Ayni talablar Alpomishning Alpinbiy yoyiga ega bo‘lishi, chiltonlar huzurida Barchin va Alpomish ruhining uchrashuvi hamda boshqa tafsilotlarda aks etgan.

Eranlarning qahramonga hamkor qilib o‘z sheriklaridan birini qo‘yishi ham “alplik tizimi”ning tayanch nuqtalaridan hisoblanadi. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida Soqibulbul, “Alpomish ”dostonida Qultoy shunday obraz hisoblanadi. Dostonda Qultoy quyidagicha sifatlanadi: “Qultoy aytdi:

Alpomishning belgisi shul edi, o‘ng egnida Shohimardon purning besh panjasining dog‘i bor edi, chap egnida o‘zimning besh panjamning belgisi bor edi”. Qultoy shunday qudratli chol ediki: “Qultoy ham zahar chol edi. Yotgan yerida bir qur hayot tortdi, to‘qson to‘qaydagi yilqi yig‘ilib qoshiga yetdi, hamma yilqilar jam bo‘lib turdi”. Eng muhim jihat Qultoy Alpomishning oti – Boychiborni boqib, tarbiyalagan kishi. “Go‘ro‘g‘li” dostonida Soqibulbul G‘irko‘kning sayisi, Go‘ro‘g‘liga maslahatchi, davrasiga soqiylik qildi.<sup>27</sup>

Qahramonning alp sifatida o‘z kuch-qudratini amalda namoyish etishi va xalq tomonidan alp sifatida tan olinishi. Jangovor otning ham alp bosib o‘tgan sinov va toblanishlar jarayonidan o‘tishi ham alplik mezonlari qatorida turadi. Umuman olganda “alplik tizimi” qahramonlik dostonlarining umurtqasi hisoblanadi.

Xalqning alp haqidagi bu yaxlit tushunchalar tizimining mohiyatidan

---

<sup>27</sup> Albert Bates Lord. *Epic Singers and Oral tradition*. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts. P.96

nimalar anglashiladi? Javob shunday: yer yuzida o‘z izidan chiqqan tartibni o‘zaniga qaytarish oddiy xom sut emgan bandaning qo‘lidan kelmaydi. Yerdagi tartibning buzilishi esa o‘z navbatida kosmos va yer osti dunyosi mutanosiblikni izdan chiqaradi. Shu sababli kosmos vakillari – homiy eranlar bu jarayonga aralashadilar. Ular Ayni vazi»Fan»i bajaruvchi xos vakil tanlashadi. Ushbu vakil butun borliq (kosmos, kaos, yer) kuchlarining quvvati payvand bo‘lgan joydan unib chiqadi. Chunki uning kosmos, kaos, yer dunyolarida tobga kelgan ruhi va tani butun olam tartibiga halal beruvchi kuchlarning har birini o‘z joyida (ko‘kdagisini ko‘kda, yerdagisini yerda, suvdagisini suvda) o‘rniga qo‘yish imkonini beradi. Shuning uchun ham alp oddiy odamlar orasida tug‘ilgan xos – tanlangan kishi hisoblanadi. Lekin u tug‘ilib chinakam alp sifatida kamolga yetguniga qadar ketgan vaqtda lozim bo‘lgan toblanishlar, sinovlar bosqichidan o‘tadi.

O‘zbek xalq ertaklari, xalq lirikasi tarkibida ham mifologik dunyoqarash o‘ziga hos ravishdanamoyon bo‘ladi. “Tuxumboylar bilan Buyrakboylar”, “Susambil”, “Cho‘loq bo‘ri”, “Kulsa gul, yig‘lasa dur” kabi ko‘plab ertaklar va lirik qo‘shiqlardagi ramz va timsollarning tahlili fikrimizni tasdiqlaydi.

#### **Nazorat savollari:**

1. O‘zbek mifologiyasi deyilganda nimani tushinasiz?
2. O‘zbek folklorida qanday mifologik obrazlar bor?
3. Bugungi adabiyotda, san’atda mifologik tafakkurning o‘rni qanday?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. T.8. -528 b.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Islom Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T., “O‘zbekiston”. 2009.
4. Jo‘rayev M., Shomusarov Sh. O‘zbek mifologiyasi va arab folklori. – Toshkent: «Fan», 2000.
5. Turdimov Sh. «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining genezis iva tadrijiy bosqichlari. –Toshkent:»Fan», 2011. – 240 b.
6. Turdimov Sh. Hikmat xazinasi, -T.: “O‘zbekiston ” 2016.
7. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. Toshkent., “«Fan»” 2006. B-128
8. Eshonqul Jabbor. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: «Fan», 2011. – 304 b.



9. Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.

## KO‘CHMA MASHG‘ULOT

**Mavzu: Folklor asarlarining saqlanish tartibi, arxiv yuritish, arxivlashtirishning ilmiy asoslari (Til va adabiyot institutining folklor bo‘limidagi folklor arxivi bilan tanishish)**

Tinglovchilar bilan ko‘chma mashg‘ulot Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining folklor bo‘limi faoliyati va folklor arxivida taniqli olimlar bilan suhbat tarzida tashkil etiladi.

## IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR REJASI

**1-mavzu: O‘zbek folklorshunosligining ibtidosi va taraqqiyot bosqichlari.**

### REJA

1. O‘zbek folklorshunosligining asoslari, taraqqiyot bosqichlari.
2. Hodi Zarifning o‘zbek folklorshunosligida xizmatlari, ilmiy-amaliy faoliyati.
3. XX asrning 50-70 yillar folklorshunosligi, XX asrning 70-90 yillar davri folklorshunosligi.
4. Mustaqillik davri folklorshunosligi.

**2-mavzu: Xalq dostonlarining nashrlari va tadqiqi.**

### REJA

1. “Alpomish” dostonining nashrlari va o‘rganilishi.
2. “Go‘ro‘g‘li” turkumi namunalarining nashrlari va o‘rganilishi.
3. Alohida dostonlarning chop etilishi va tadqiqi.

**3-mavzu: O‘zbek marosim folklorining o‘rganilishi.**

### REJA

1. Mavsumiy marosimlarning o‘rganilishi.
2. Oilaviy marosimlarning o‘rganilishi.
3. Mustaqillik davrida marosim folkloriga munosabat.

**4-mavzu: Xalq lirikasining nashrlari va tadqiqi masalalari.**

### REJA

1. Mehnat qo‘shiqlari, termalarning nashrlari va o‘rganilishi.
2. Lirik qo‘shiqlarning tadqiq etilishi va chop qilish tajribalari.
3. Xalq lirikasi genezisi va tadrijiy bosqichlari yuzasidan tajribalar.

**5-mavzu: Ertak, afsona, naqlarning nashrlari, ilmiy tadqiqi.**

### REJA

1. O‘zbek xalq ertaklarining nashrlari, tasnifi, o‘rganilish tarixi.
2. Xalq afsonalarining nashrlari, tadqiq etish tajribalari.
3. Naqlarning folklorshunoslikda o‘rganilishi.

**6-mavzu: Mustaqillik davri o‘zbek folklorshunosligi**

## **REJA**

1. Mustaqillik davri folklor asarlari nashrlari, yutuq va muammolar.
2. Xalq bayram va tantanalarida folklor asarlarining oʻrni, postfolklor hodisasi.
3. Folklor va adabiyot, san'at munosabati.

Amaliy mashgʻulotlar oʻtkazish davomida tinglovchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish. Interfaol metodlar va ulardan foydalanish. Auditoriyadan tashqarida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish (Keys-stadi, Loyiha uslublari).

## V. KEYSLAR BANKI

**Keyslar uchun keys-stadi metodi asos sanaladi. Zero “Keys-stadi”** - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv «Fan»larini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When), Qaerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday?, Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

### **Modul boʻyicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:**

**1-keys.** Folklorshunoslik «Fan»ida versiya va variant tushunchalari mavjud. Siz ijroning qaysi holatiga variant yoki versiya atamalri tegishli deb bilasiz?

Fikringizni asoslab bering.

**2-keys.** Folklor asarlarida ijrochi anʼana va epik bilimga asoslanadi. Uning ijro jarayonida tugʻilgan yangiliklari qanday atama bilan yuritiladi va bu holatga folklorshunoslikning munosabati qanday?

Tushuntirib bering.

**3-keys.** Folklor atamasi gʻarb ilmiy olamida biz anglab qabul qilgandan koʻra boshqacha tushunchalarni ifodalaydi. Bu holat nima sababli payda boʻldi. Qaysi bir qarashni toʻgʻri deb bilasiz?

**4-keys.** Lirik qoʻshiqlar tarkibidagi olma, roʻmol, tol, togʻ, gʻoz, oʻrdak, oq, qizil, qora obrazlarining ramziy maʼnolarini bilasizmi, ularning boshqa janrlar tarkibidagi tub maʼnosi lirik qoʻshiqlar tarkibidagi maʼnoga uygʻunmi, oʻzgacha boʻlsa nima sababli bu holatlar yuzaga kelgan?

**5-keys:** Ushbu topshiriqda maqol va topishmoqlar misol sifatida keltiriladi. Ularning mazmuni, ifoda shaklidagi uygʻun va farqli jihatlar tahlil etiladi.

## VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

### Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- «Fan» doirasida yangi manbalar izlab topish va o'zlashtirish;
- metodlar yuzasidan test savollari shakllantirish;
- aniq bir badiiy asarga malaka oshirish jarayonida olingan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish;
- folklor asari va ilmiy adabiyotni mustaqil baholash, o'quv jarayoniga tatbiq etish malakasini hosil qilish.

### Mustaqil ta'lim mavzulari

1. Amaliy mashg'ulotlarda tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar o'qish, tegishli manbalar bilan tanishish;
2. Chet tillardagi nazariy adabiyotlarni o'qish;
3. Dunyo folklorshunosligidagi yetakchi nazariy adabiyotlarni internetdan izlab topish;
4. O'zbek folklorshunosligining taraqqiyot yo'llarini tahlil etish;
5. O'zbek folklorshunosligi tarixi va bugungi taraqqiyotiga tegishli kitoblarni muhokama qilish;
6. Baxshi, baxshi-shoir, dostonchilik maktablari haqidagi ilmiy qarashlarni tahlil etish;
7. Propp V. Ya., Jirmunskiy V.M., A.Lord asarlaridagi ilmiy qarashlarni tahlil qilish;
8. Frezer Dj.Dj. , Fromm E., asarlaridagi manbalarni o'zbek folklori bilan qiyosiy tahlil etish;
9. Taylor E.B., Roshianu N., Ko'ro'g'li X. asarlaridagi yetakchi farazlarni tahlil etish;
10. Markaziy Osiyo va qardosh xalqlar folklorshunoslarining ilmiy asarlarini qiyosiy tahlil qilish;
11. Hozirgi ilmiy jarayondagi o'zbek folklorshunoslarining asarlarini o'qish va tahlil qilish.

## VI. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi
<b>“Adabiyot”</b>	- arabcha so‘z bo‘lib, u “odob” (ko‘plik shakli “adab”) so‘zidan olingan.
<b>An'ana</b>	- folklorda o‘tmish ijodkorlar tomonidan to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qismi.
<b>Allegoriya</b>	- yunoncha allos – o‘zgacha, agoreuo – gapiraman – mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko‘chim turi.
<b>Aforizm</b>	- yunoncha aphorismos – ta'rif, ixcham ifoda – muallifi ma'lum bo‘lgan, ixcham shaklda va ta'sirli ifoda etilgan umumlashma fikr.
<b>Badiha</b>	- arabcha so‘z bo‘lib o‘ylovsiz, birdaniga aytilgan chiroyli so‘z, topqirlik. Avvaldan maxsus tayyorlanmasdan, da’atan aytilgan she'r; eksprompt.
<b>Doston</b>	- Turkiy xalqlar og‘zaki ijodidagi epik janr. Xalq og‘zaki ijodidagi dostonlar voqeaband syujet asosiga qurilgan yirik hajmli asarlar bo‘lib, ular baxshi (oqin, jirov, manaschi)lar tomonidan musiqa (do‘mbira, qo‘biz va b.) jo‘rligida ijro qilingan, og‘izdan-og‘izga o‘tib bizgacha yetib kelgan. Bu jarayonda har bir ijrochi o‘zidan nimadir qo‘shgan, nimanidir tushirib qoldirgan va shu tariqa dostonlar sayqallanib borgan. Xalq ijodidagi dostonlarning matniy qurilishi ijroga mos – unda nasriy va she'riy parchalar almashinib turadi.
<b>Janr</b>	- Fransuzcha so‘z bo‘lib genre – jins, tur, xil mazmunini beradi. adabiy janr, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi, muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarni tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushuncha.
<b>Lirika</b>	- yunoncha lyra – musiqa asbobi, qadimda she'rlar

	uning jo'rligida o'qilgan – badiiy adabiyotning uchta asosiy turidan biri. Lirikada voqelik lirik sub'ekt his-tuyg'ulari orqali akslanadi, uning uchun badiiy nutq ob'ekti emas, sub'ekti birlamchidir.
<b>Mif</b>	- yunoncha mythos – rivoyat, hikoya, masal – xalq og'zaki ijodining eng qadim davrlarida paydo bo'lgan, voqelik (olam) haqidagi tasavvurlarni konkret obrazlar vositasida aks ettiruvchi rivoyaviy asarlar. M. rivoyaviy asarlar (olam va odam haqidagi hikoyalar) bo'lsa-da, ularni tom ma'noda so'z san'ati hodisasi deb bo'lmaydi. M.lar qadimgi odamlar uchun tafakkur shakli, ular M. vositasida olam sir-sinoatlari (olaning yoki insonning yaratilishi, quyosh chiqishi va botishi, shamol esishi va momaguldurak sababi va h.)ni bilishga intilganlar, M.larda ularning olam haqidagi bilimlari o'z ifodasini topgan.
<b>Motiv</b>	- yunoncha moveo – harakatlantiraman – musiqashunoslikdan o'zlashtirilgan termin. M. musiqada asarning eng kichik shakl birligi sanalib, asar uning aynan takrorlanishi (shuningdek, o'zgartirilishi yoki zid M.lar kiritish) asosida rivojlanadi.
<b>Filologiya</b>	- grekcha so'z bo'lib, philo - <i>sevaman</i> , logos - <i>so'z, bilim</i> demakdir.
<b>Folklor</b>	- Folk – xalq, Lore – bilim, donishmandlik, ya'ni Folklore – xalq donishmandligi ma'nolarini ifodalaydi. Ilk marotaba Vilyam Toms tamonidan yevropa dehqonlarining an'analari, qadimiy xalq she'riyati, urf-odat, marosim va etiqodlarini anglatuvchi atama sifatida qo'llanilgan. O'zbek folklorshunosligida xalq og'zaki ijodini anglatadi. Ayni paytda xalq ijodiyatining barcha turlari ham folklor deb yuritiladi.
<b>Obraz</b>	- so'zning o'zagi “raz” (chiziq) bo'lib, undan “razit”(chizmoq, yo'nmoq, o'ymoq), undan “obrazit”(chizib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq) paydo

	bo'lgan. Ana shu "obrazit" so'zidan "obraz" atamasi vujudga kelgan. Bu so'z "umuman olingan tasvir" ma'nosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashtirgan xususiyatni o'zida gavdalantirgan hodisadir.
<b>Badiiylik</b>	hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta'sirlantiradigan, unda tasavvur uyg'otadigan qilib tasvirlash. Badiiylik barcha san'at turlariga xos hodisa.
<b>Badiiy to'qima</b>	- obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqyealarni o'ylab topishdir.
<b>Xayoliy- »Fan»tastik obrazlar</b>	- romantik obrazlarga o'xshab ketadi. Bu obrazlarda ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo'ladi. Xayoliy-»Fan»tastik obrazlar mo'jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko'rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarni xayoliy-»Fan»tastik obrazlar deyish mumkin.
<b>Majoziy obrazlar</b>	- muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, so'fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi.
<b>Allegorik obrazlar</b>	- majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo'ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe'l-atvoridagi kamchilik, illatlar ko'rsatiladi.
<b>Shakl va mazmun</b>	- voqea-hodisalarning tashqi ko'rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish
<b>Mavzu</b>	- ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasi. Adabiy asar uchun asos



	qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir.
<b>G'oya</b>	- ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma'lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa.
<b>Kompozitsiya</b>	- lotincha compositio so'z bo'lib, "tuzilish, qurilish, tarkib" demakdir. Badiiy asar kompozitsiyasiga quyidagicha ta'rif-tavsif berish keng tarqalgan: "badiiy asar qismlari, detallari, badiiy tasvir vositalarining ma'lum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishi".
<b>Syujet</b>	- fransuzcha "sujet" so'z bo'lib, "narsa, mazmun, mavzu" degan ma'noni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi.
<b>Fabula</b>	- lotincha fabula so'z bo'lib, masal, hikoya qilish demakdir. Badiiy asar fabulasi deganda asar uchun asos bo'lgan hayotiy material nazarda tutiladi. "Fabula — asar voqyealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog'liqlikdagi yaxlit silsilasi" ham deyiladi. O'z ma'no va mohiyatiga ko'ra bu ikki termin bir-biriga sinonimik xarakterga ega bo'lib, hozirgi adabiyotshunoslikda <b>syujet</b> termini faol qo'llaniladi. <b>Fabula</b> termini esa asta-sekin iste'moldan tushib qolmoqda".
<b>Epos.</b>	- lotincha epos — so'z, hikoya — 1) badiiy adabiyot turi (lirika va drama b-n bir katorda); 2) xalqning qahramonona o'tmishini aks ettiruvchi asar. Epos tor ma'noda, xalqning qahramonona o'tmishini aks ettiruvchi asarlardir. Dastlab epos qahramonlarning atrof-olamdagi yovuz kuchlar va buzuq niyatli odamlarga qarshi kurashi bayon etilgan asarlarni anglatgan. Qadimgi eposlarda voqea-hodisalarning talqin va tasvir etilish yo'sini o'sha davr kishilarining dunyoqarashi, e'tiqodi, ishonchlaridan kelib chiqqan. Eposning eng qadimiy namunasi sifatida ilmda oldinlari akkadlarniki deb sanalib kelingan, ammo keyinchalik barcha turkiy

	<p>xalqlarga tegishli ekani aniqlangan «Gilgamish» dostoni hisoblanadi. Shuningdek, hindlar-ning «Ramayana» va «Mahabharata», Gomerning «Iliada» va «Odissey», o‘zbeklarning «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li», qirg‘izlarning «Manas», qozoqlar-ning «Qo‘blandi botir», ozarbayjonlarning «Ko‘ro‘g‘li», nemislarning «Nibelunglar haqida qo‘shiq», ispan-larning «Sid haqida qo‘shiq», fransuzlarning «Roland haqida qo‘shiq», anglosaksonlarning «Beovulf», karel va finlarning «Kalevala», armanlarning «Sosunli Dovud», gurjilarning «Amiraniani» kabi asarlari ham xalq qahramonlik eposiga mansubdir.</p>
<b>Etnografiya</b>	<p>- etno... va ... grafiya, etnologiya, xalqshunoslik — jahondagi barcha xalqlarning, etnik birlikshsht turli tiilari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmush tarzi, urf-odatlar, moddiy va ma'naviy taraqqiyot darajasidan qat'i nazar, teng holda o‘zaro tafovuti yoki umumiyli va o‘xshashligini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi maxsus «Fan» sohasi.</p>
<b>Tugun -</b>	<p>- badiiy asarda qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning paydo bo‘lishi. Tugun, ko‘pincha, qahramonlarning ilk bor uchrashuvi yoki biror jiddiy muammo yuzasidan tortishishi tufayli paydo bo‘ladi. Voqealar tuguni faqat qahramonlar o‘rtasida emas, qahramonning aynan o‘zining o‘y-kechinmalari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.</p>
<b>Voqea rivoji</b>	<p>- syujetdagi voqealarning ma'lum tugundan so‘nggi rivojlanish jarayoni. Tugun to‘satdan yuzaga kelganday bo‘lishi mumkin. Biroq voqea rivoji uzoq davom etadigan jarayon.</p>
<b>Voqealar kulminatsiyasi</b>	<p>- asar syujetidagi voqealarning eng yuqoriga ko‘tarilib, asosiy qahramonlar xarakteri, qiyofasini ko‘rsatadigan epizod. <b>yechim</b> - syujet voqealari va qahramonlar</p>

	taqdirining hal bo‘lishini gavdalantiruvchi epizod.
<b>Muqaddima -</b>	- muallif o‘quvchiga o‘z maqsad-muddaosini ma'lum qilib, asari haqida tushuntirish, izohlar berishi.
<b>Xotima</b>	- qahramonlarning asar syujeti voqealari tamom bo‘lgandan keyingi taqdiri haqida ma'lumot beruvchi qismi.
<b>Detal</b>	- ijodkor e'tiborni qaratgan personajlar ko‘rinishi, qiyofasi xususidagi mulohazalar ularning tashqi jihatlari haqidagina emas, ichki holatlari to‘g‘risida ham muayyan tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa detallar asosida hosil bo‘ladi. Detal qahramon portretini emas, uning fe'l-atvorini ko‘rsatishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Detal qahramon harakter-sajiyasini yorqinlashtirgani singari, joy manzaralarini aniq gavdalantirishga ham asos bo‘ladi.
<b>Peyzaj</b>	- fransuzcha “paysage” so‘z bo‘lib, “mamlakat”, “joy” degan ma'noni bildiradi. Peyzaj badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqea-hodisalar kechgan joylar ko‘rinishi tasviridir. U qahramonlar holat, kayfiyatini gavdalantirishning muayyan vositasi hisoblanadi.
<b>Sayyor syujet</b>	-ilingan asarlar. Sayyor syujet barcha milliy adabiyotlar tarixi- bir xil mavzu, bir xil qahramonlar taqdiri naql q da mavjud hodisa.
<b>Dialog</b>	- yunoncha “dialogos” so‘z bo‘lib, “ikki kishi o‘rtasidagi so‘zlashuv” degan ma'noni anglatadi.
<b>Monolog</b>	- ham yunoncha (monos — bir va logos — so‘z, nutq)

	soʻz boʻlib, u badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarning oʻz-oʻziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi sanaladi.
<b>Metafora</b>	- yunoncha “metaphora” soʻz boʻlib, “koʻchirish” degan maʼnoni anglatadi. U narsa-hodisalar oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslangan boʻladi. Biroq metafora aynan oʻxshatish emas.
<b>Metonimiya</b>	- ikki tushuncha oʻrtasidagi yaqinlikka asoslangan oʻxshashsiz koʻchim. Metonimiya yunoncha “metonomadzo” soʻz boʻlib, “qayta nomlash”dir.
<b>Sinekdoxa</b>	- yunoncha “synecdoche” soʻz boʻlib, unda bir qism yoki boʻlak orqali yaxlit, butun narsa bildiriladi va aksincha. Yaʼni, bir butun hodisa orqali uning ayrim boʻlagi haqida mulohaza yuritiladi.
<b>Jonlantirish</b>	- kishilarga xos xususiyatlarni jonsiz va mavhum narsa-hodisalarga koʻchirishdir. Masalan, <i>xoʻmraygan bulutlar</i> deyiladi. Bunda kishilarga xos xoʻmrayish jonsiz bulutga koʻchirilgan boʻladi. Asarlarda togʻ-tosh, shamol, daraxt, mevalar xuddi odamlarga oʻxshatib gapirtiriladi.
<b>Sifatlash</b>	- narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan alohida ajratib koʻrsatishdir. Sifatlash ikki xil boʻladi. Birinchisi oddiy sifatlash boʻlib, unda narsa-hodisalarning oʻtkinchi belgilari taʼkidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash boʻlib, bunda narsa--hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.

<b>O‘xshatish</b>	- narsa-buyumning ma'lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O‘xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi.
<b>Mubolag‘a</b>	- narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag‘a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi.
<b>Parallelizm</b>	- ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani yonma-yon qo‘yish orqali mazmuni yorqinlashtirish uslubi sanaladi. Unda narsa-hodisalar bir-biri bilan muqoyasa qilinadi yoki zidlashtiriladi. Ushbu yo‘l bilan fikr aniqlashtiriladi, uning ta'sirchanligi kuchaytiriladi.
<b>Takror</b>	- parallelizmga yaqin tasvir usuli hisoblanadi. Matnda u aniq ko‘rinib turadi. Chunki takror ayrim so‘z, iboralarning ma'lum bir tartib asosida qayta-qayta qo‘llanishidir. Takror muayyan maqsadga muvofiq qo‘llanadi. Takrorning anafora, epifora, misralar takrori singari ko‘rinishlari bor.
<b>Inversiya</b>	- lotincha “inversi” so‘z bo‘lib, “o‘rin almashtirish” degan ma'noni bildiradi. Bunda gap bo‘laklari grammatika me'yorlari tartibidan farqliroq tarzda qo‘llanadi. Inversiya ta'kidlanmoqchi bo‘lgan fikrga mantiqiy urg‘u berish, uni kuchaytirish, ta'sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llanadi.
<b>Ritorik murojaat</b>	- tantanavorlik, ko‘tarinkilik yoki kesatish, kuchli g‘azab, nafratni ifodalash uchun qo‘llanadigan xitob shaklidagi ifoda usulidir.
<b>Metrik she'r tizimi</b>	- bo‘g‘inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. Grek, lotin, arab she'riyati shunday

	xususiyatga ega.
<b>Tonik she'r tizimi</b>	- misralarda urg'usiz bo'g'in qancha bo'lishidan qat'i nazar, ritm hosil bo'lishi, urg'ularning bir maromda kelishiga asoslanadi.

## VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabr, 2003-yil 24-aprel, 2007-yil 11-aprel, 2008-yil 25-dekabr, 2011-yil 18-aprel, 2011-yil 1-dekabr, 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan qonunlariga muvofiq kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). –T., 2014.
4. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997. 9-son, 225-modda.
5. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi / O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997. 11-12-son, 295-modda.
6. Karimov I.A. “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida so'zlangan nutq. “Xalq so'zi” gazetasi 1999-y. 9-noyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-dekabrda “Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 365-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida”gi PF-4797-sonli Farmoni.
9. Alpomish. O'zbek xalq qahramonlik eposi. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchi To'ra Mirzayev. –Toshkent: «Fan», 1999.– 827 b.
10. Bobolardan qolgan naqlar. Yozib oluvchi Rahmatulla Yusuf o'g'li. To'plab nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, izohlar mualliflari Mamatqul Jo'rayev va Ulug'bek Sattorov.–Toshkent: «Fan», 1998.–128 b.
11. Go'ro'g'lining to'g'ilishi. Aytuvchi Muhammad Jomrot o'g'li Po'lkan. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. –Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. –328 b.
12. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Ленинград: “Наука”, 1974.
13. Jumanazarov U. O'zbek folklori va tarixiy voqelik.–Tashkent: “Fan”, 1995.–144 b.
14. Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida sehrlil raqamlar.–Toshkent: “Fan”, 1991.– 152 b.
15. Jo'rayev M. O'zbek samoviy afsonalari.–Toshkent: “Fan”, 1996.–108 b.
16. Zarifov H. T. Folklor va arxeologiya materiallari qiyosiy o'rganish masalasiga doir// O'zbek tili va adabiyoti.1958, №1.–B.25–30.
17. Zarifov H. T. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar// Po'lkan shoir. Tadqiqotlar.–Toshkent: “Fan”, 1976.–34–42.
18. Imomov K. O'zbek xalq prozasi poetikasi. –Tashkent: “Fan”, 2009.

19. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. III- tom. –Toshkent: “Fan”, 1960. –B.I38.
20. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repurtuari.–Toshkent: “Fan”, 1979.– 152 bet.
21. Mirzayev T. “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent: “Fan, 1968.–168 b.
22. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: “Фан”.2008. – 410 с.
23. Mirzayev T. Hodi Zarif suhbatlari. –Toshkent, 2013. 314 b.
24. Musaqlulov A. O‘zbek xalq lirikasi.–Toshkent: “Fan”, 1995. –168 b.
25. Oltin beshik. Ertaklar. Nashrga tayyorlovchilar: M.Afzalov, K. Imomov.– Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. –256 b.
26. Oltin olma. O‘zbek xalq ertaklari. Nashrga tayyorlovchilar: M. Afzalov, Z. Husainova, T. Mirzayev. –Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. –310 b.
27. Oq olma, qizil olma. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. To‘plovchi Muzayyana Alaviya. –Toshkent: “Fan”, 1972. –232 b.
28. Rustamxon. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti. –M.:Hayka, 1972. 331c.
29. Saidov M. O‘zbek dostonlarida badiiy mahorat.–Toshkent: “Fan”, 1969. – 264 b.
30. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori.–Toshkent: “Fan”, 1986. 216 b.
31. Susambil //O‘zbek xalq ertaklari. Ikkinchi jild. Tuzuvchilar M.Afzalov, H.Rasulov, Z. Husainova. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” nashriyoti, 1996.–B.8-16.
32. Topishmoqlar. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va sa'nat” nashriyoti, 1981.–B.
33. Turdimov Sh. «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. –Toshkent:”«Fan»”, 2011. – 240 b.
34. Turdimov Sh. Etnos va epos. –Toshkent:”O‘zbekiston”, 2012. – 96 b.
35. Eshonqul Jabbor. Folklor: obraz va talqin. –Qarshi: “Nasaf”, 1999. 160 b.
36. Eshonqul Jabbor. Epik tafakkur tadriji. Monografiya. –Toshkent: “Fan”, 2006.–122 b.
37. Eshonqul Jabbor. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. –Toshkent: “Fan”, 2011. – 304 b.
38. Yakka Ahmad. Egash Jumanbul o‘g‘li varianti. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” nashriyoti, 1984. –
39. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. Ilmiy to‘plam. 2-kitob. –Toshkent: “Fan”, 2010. –172 b.
40. O‘zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. I-jild.Tuzuvchilar: M.I. Afzalov, H. Rasulov, Z. Husainova. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” nashriyoti, 1995. –256 b.
41. O‘zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. II-jild.Tuzuvchilar: M.I. Afzalov, H. Rasulov, Z. Husainova. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” nashriyoti, 1996.–320 b.
42. O‘zbek xalq poetik ijodi. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1980.–362 b.
43. Albert Bates Lord. Epic Singers and Oral tradition. New York: Cornell University, Press, 1991 of Talts.



### **Internet saytlari**

1. <http://lectures.ndpi.uz/lections>
2. [http://news.uzreport.uz/news\\_9\\_u136022](http://news.uzreport.uz/news_9_u136022)
3. [www.folklore.ru](http://www.folklore.ru)
4. [www.folksentr.ru](http://www.folksentr.ru)
5. <https://m.vk.com/club1962650>
6. <http://folklore.tomsk.ru>
7. [www.ruthenia.ru/folklore](http://www.ruthenia.ru/folklore)